

**Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat instituti
Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi**

U.F. Karimov, M.A. Rahmatullayev

**ELEKTRON KUTUBXONA
YARATISH TEKNOLOGIYASI VA RESURSLARIDAN
FOYDALANISH**

Toshkent – 2010

UDK 004 (0.034)(571.1)

Monografiya Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat instituti
Ilmiy Kengashi tomonidan nashriga tavsiya etilgan.

Mas`ul muharrir: Sotsiologiya fanlari doktori,
A.O. Umarov

Taqrizchilar: Texnika fanlari doktori, professor,
T. Nishonboyev
Fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
A.Sh. Muhammadiyev

Mazkur monografiya “Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik” ta`lim yo`nalishida tahsil olayotgan talabalarga, “Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik” mutaxassisligi bo`yicha o`qiyotgan magistrantlarga hamda o`z kutubxonalarida elektron kutubxona yaratayotgan mutaxassislarga mo`ljallangan. Monografiyada elektron kutubxona yaratish texnologiyasi, elektron katalog yaratish tamoyillari va KARMAT dasturi asosida axborot resurs markazida elektron kutubxona yaratish metodikasi batafsil keltirilgan.

© U.F. Karimov 2010 y.

© M.A. Rahmatullayev 2010 y.

Qisqartmalar

- | | | |
|------------|------------------------------|--|
| 1. | AKAT | - Avtomatlashtirilgan kutubxona-axborot tizimi. |
| 2. | AKM | - Axborot- kutubxona markazi. |
| 3. | AKAT | - Avtomatlashtirilgan kutubxona axborot tizimi. |
| 4. | AIJ | - Avtomatlashtirilgan ish joyi. |
| 5. | ARM | - Axborot- resurs markazi. |
| 6. | ASP | - Analiticheskoe opisanie stat`i polnoe. |
| 7. | AUNTD | - Analiticheskoe opisanie yuridicheskogo dokumenta. |
| 8. | BBK | - Bibliotechno-bibliograficheskaya klassifikatsiya. |
| 9. | BYo | - Bibliografik yozuv. |
| 10. | BT | - Bibliografik tasvir. |
| 11. | VGBIL | - Vserossiyskaya gosudarstvennaya biblioteka inostrannoy literaturi. |
| 12. | GPNTB | - Gosudarstvennaya publichnaya nauchno-texnicheskaya biblioteka. |
| 13. | GTSNMB
biblioteka. | - Gosudarstvennaya sentral`naya nauchnaya meditsinskaya biblioteka. |
| 14. | GPIB | - Gosudarstvennaya publichnaya istoricheskaya biblioteka. |
| 15. | GRNTI | - Gosudarstvenniy rubrikator nauchno-texnicheskoy informatsii. |
| 16. | DYa | - Dublin yadrosi. |
| 17. | IRBIS | - Integrirovannaya bibliotechno-informatsionnaya sistema. |
| 18. | IA | - Individual avtor. |
| 19. | INION | - Institut nauchnoy informatsii po obshchestvennim naukam. |
| 20. | YHOK | - Yig`ma hisobga olish kitobi. |
| 21. | KARMAT | - Korporativ axborot resurs markazlarining avtomatlashtirilgan tizimi. |
| 22. | MARC | - Machine – Readable Catalogue or Cataloguing. |
| 23. | MB | - Ma`lumotlar bazasi. |
| 24. | MBBT | - Ma`lumotlar bazasini boshqarish tizimi. |
| 25. | MDH | - Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligi. |
| 26. | ME | - Ma`lumot elementi. |
| 27. | MH | - Mualliflik huquqi. |
| 28. | NTD | - Nauchno-texnicheskoe dokument. |
| 29. | OPAC | - Online Public Access Catalogue. |
| 30. | OCLC | - Online Computer Library Center. |
| 31. | OO`Yu | - Oliy o`quv yurti. |
| 32. | PDF | - Portable Document Format. |
| 33. | RNB | - Rossiyskaya natsional`naya biblioteka. |
| 34. | UDK | - Universal`naya desyatichnaya klassifikatsiya. |
| 35. | XML | - Extensible Markup Language. |
| 36. | EK | - Elektron katalog. |
| 37. | UNIMARC | - Universal MARC. |
| 38. | RUSMARC | - Rossiyskiy kommunikativniy format predstavleniya bibliograficheskix zapisey. |
| 39. | SGML | - Standard Generelized Markup Language. |

Mundarija

Kirish.....	5
I-BOB. ELEKTRON KUTUBXONA: ASOSIY TUSHUNCHALAR, TA`RIFLAR, FUNKSIYALAR, VAZIFALAR.....	7
1.1. Kompyuterlashtirilgan, avtomatlashtirilgan, elektron, korporativ va virtual kutubxonalar. Asosiy tushunchalar.....	7
1.2. Elektron kutubxonaning elektron katalogi.....	14
1.2.1. Elektron katalog yaratish tamoyillari.....	15
1.3. Elektron katalog ma`lumotlar bazasini yaratish texnologiyasi.....	21
1.4. Elektron resurslar yaratish va foydalanishning huquqiy jihatlari.....	29
II-BOB. DUBLIN YADROSI METAMA`LUMOTLARI ASOSIDA IKKI BOSQICHLI KATALOGLASHTIRISH USULI.....	39
2.1. Dublin yadrosining metama`lumotlar tizimi.....	39
2.2. Elektron darsliklar, qo`llanmalar, ma`ruzalar matnlariga ikki bosqichli bibliografik ishlov berish algoritmi.....	41
2.3. Avtomatlashtirilgan integrallashgan axborot-kutubxona tizimi bazasini shakllantirishda Dublin yadrosi tizimidan foydalanish.....	47
III-BOB. “KARMAT-EK” DASTURI ASOSIDA ELEKTRON KUTUBXONA (EK) YARATISH.....	56
3.1. KARMAT-EK dasturini ishga tushirish.....	56
3.1.1. Dasturning bosh sahifasi.....	61
3.1.2. Foydalanuvchining elektron kutubxonada ro`yxatdan o`tishi.....	63
3.2. Elektron kutubxona kataloglashtiruvchisining avtomatlashtirilgan ish o`rni (AIO`.....	64
3.2.1. Kataloglashtiruvchining AIO`da kitobxonlarni ro`yxatga olish.....	65
3.2.2. Kataloglashtiruvchining AIO`da EK ma`lumotlar bazasini shakllantirish.....	66
3.2.3. Bibliografik yozuvlarni eksport/import qilish.....	72
3.3. Kitobxonning AIO` (Kitobxonning shaxsiy elektron kabineti).....	74
3.4. Administratorning AIO`	76
3.4.1. Tizimning ichki formatini yaratish.....	79
3.4.2. KARMAT-EK tizimida korporativ kataloglashtirish usulidan foydalanish.....	81
3.4.3. KARMAT-EK tizimida yangi ma`lumotlar bazasini yaratish.....	85
3.4.4. Administratorning AIO`da ma`lumotnomalar yaratish.....	86
3.5. Elektron kutubxonadan foydalanish.	90
3.6. Internet tarmog`idagi elektron kataloglar va kutubxonalar adreslari.....	92
Foydalanilgan adabiyotlar.....	92
Illova.....	124

Kirish

Elektron shakldagi axborotlarni yaratish, saqlash, qidirish va ularni iste`molchilarga yetkazib berish kundan kunga murakkablashib bormoqda. Axborotlardan foydalanuvchilar kerakli axborotlarni tezlikda qidirib topish va o`zlariga maqbul shaklda bu axborotlarga ega bo`lishni xohlasalar, axborot yaratuvchilar esa o`zlarining mualliflik huquqlarini himoya qilinishini, menedjerlar esa elektron ma`lumotlarni boshqarishda kuratorlik majburiyatlarini o`z zimmalariga olishni (masalan, axborotlarni uzoq muddatli saqlanishini ta`minlanishini) istaydilar. Mutaxassislarning fikricha ma`lumotlar to`g`risidagi ma`lumotlar ya`ni metama`lumotlar yuqoridagi muammolarni hal qilishda asosiy rolni o`ynashi mumkin.

Hujjatlar oqimining kundan-kunga ortib borishi kerakli axborotlarni qidirishni qiyinlashtirmoqda. Internetdagи qidiruv mashinasiga “Informatika” atamasi bo`yicha qidiruv topshirig`ini bersangiz u 6143 ta saytning 7 213 279 sahifasida “Informatika” so`zi uchrashi mumkinligi to`g`risida xabar beradi. Bunday katta hajmdagi axborotlar oqimining bir qismini ko`rib chiqishga har qanday kitobxonda ham imkoniyat topilmasa kerak.

O.V.Barishevaning fikricha [2] “Hujjatlarni an`anaviy bibliografik tavsifini yaratish, an`anaviy shakldagi hujjatlar oqimining kundan kunga ortib borishi natijasida ularni topish jarayonining murakkablashuvi bilan bog`liq bo`lib, oqibatda hujjatlar oqimini hisobga olish va tizimlashtirish zarurati paydo bo`ldi. Bu hujjatlar oqimi qog`oz jismli bo`lgani uchun ham hujjatlarning o`zi va metama`lumotlar (katalog tavsifi) ham qog`oz jismli edi. 60-yillarning oxiri va 70-yillarning boshlarida yagona elektron fazosi fenomeni paydo bo`ldi va bu esa o`z navbatida taqsimlangan elektron-qog`oz hujjatlar oqimining paydo bo`lishiga olib keldi. An`anaviy qog`oz jismli hujjatlar nusxasini faqatgina kutubxona tokchalaridagina emas, balki kompyuter tarmog`ida elektron nusxa shaklida ham uchratish mumkin bo`ldi. Yangi paydo bo`lgan hujjatlar oqimini tartibga solish maqsadida MARC formatlari paydo bo`ldi. Ammo texnika va texnologiyalarning rivojlanishi oqibatida qog`oz analogi bo`limgan elektron hujjatlar ham paydo bo`ldiki, ular tabiatiga ko`ra an`anaviy hujjatlar bilan turli tipdagi munosabatlar bilan bog`langan bo`lishi ham mumkin va ayni paytda ular orasida hech qanday munosabat bo`lmay ular tabiatiga ko`ra absolyut unikal bo`lishi mumkin. Bunday shakldagi elektron hujjatlar bilan operatsiyalar bajarish maqsadida maxsus metama`lumotlar formati (elektron hujjatlar tavsifi) va uni tuzish bo`yicha qoidalar ishlab chiqildi. Keyinchalik u Dublin Core (Dublin yadrosi) nomi bilan yuritila boshladi. Dublin yadrosi elektron hujjatlar tavsifini yaratishga mo`ljallangan bo`lib, bugungi kunda u elektron hujjatlarga ishlov berish usullarini tavsiflashga mo`ljallangan eng istiqbolli kontseptsiyalardan biridir va uni ixtiyoriy maqsadlar uchun ixtiyoriy tipdagi hujjatlarga tatbiq qilish mumkin”.

Internetdagи bir qator zamonaviy navigatsiya vositalarining xususiyatlari foydalanuvchilarning ma`lum bir maqsadga yo`naltirilgan ehtiyojlarini qondira olmasligi (qidiruv mashinalari, qidiruvning meta-mashinalari, avtonom qidiruv mashinalari) Dublin yadrosini ishlab chiqish zaruratini tug`dirdi.

Internetning benihoya ulkan resurslaridan kerakli ma`lumotlarni qidirishni tezlashtirish maqsadida 1995 yili Ogayo shtatining Dublin shahrida kutubxonachilik ishi, informatika va mazkur sohaga yaqin bo`lgan 52 olim va mutaxassislarining tashabbusi asosida elektron resurslar tavsifini yaratish imkoniyatini beruvchi model qabul qilindi. Mazkur model (Dublin Core Metadata Initiativa (DCMI) metama`lumotlar elementlarining Dublin yadrosi (DYa) deb nomlandi. 1999 yildan boshlab rasmiy ravishda ishlatila boshlangan DYa 15 elementdan iborat. T. Bernesa-Lining ta`rifiga ko`ra “Metama`lumotlar – bu Internetdagi veb resurslarga nisbatan mashina o`qiy oladigan axborotdir”.

S. Gredmen esa metama`lumotlardan foydalanish kutubxona kataloglaridan foydalanishdan farq qiladi. Ularni yaratish uchun professional kataloglashtiruvchilarni jalb qilish shart emas; metayozuvni yaratish uchun bibliografik yozuvni yaratishga qaraganda juda kam vaqt sarf qilinadi; metama`lumotlar materialarning maxsus ko`rinishi ya`ni elektron resurslar shaklida bo`lib, ulardan boshqa maqsadlarda foydalaniladi hamda ular katalog kartochkalari tavsifiga qaraganda original bilan texnologik jihatdan mustahkamroq bog`langandir [1].

Bugungi kunda elektron shaklda yaratilayotgan darsliklar, o`quv qo`llanmalar, ma`ruza matnlari va mul`timediya vositalarini kataloglashtirish zarurati tug`ilgan. Yaratilayotgan elektron kutubxonalar uchun elektron katalog yaratish muammosi va elektron katalog bazasiga kiritilayotgan metama`lumotlar tarkibini va formatini aniqlash dolzarb vazifalar qatorida turibdi. Ushbu qo`llanmada elektron kutubxonaning elektron resursini tavsiflashga mo`ljallangan Dublin yadrosi tizimidagi elementlardan foydalanish usuli keltirilgan va Dublin yadrosi asosida yaratilgan dasturiy vositadan foydalanib, avtomatlashtirilgan axborot-kutubxona tizimining elektron katalogi shakllantirilishi batafsil bayon qilingan. Qo`llanmada keltirilayotgan ikki bosqichli kataloglashtirish usuli raqamli resurs yaratuvchilarni ham kataloglashtirishga jalb qiladiki, bu hol faqatgina kataloglashtirishni tezlashtirib qolmay, balki yaratilgan bibliografik tavsifning sifatli bo`lishini ta`minlaydi.

Monografiya “Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik” ta`lim yo`nalishida ta`lim oluvchilarga, kutubxonani avtomatlashtirishga mo`ljallangan IRBIS tizimidan foydalanuvchilarga va kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish bilan shug`ullanuvchi mutaxassislariga mo`ljallangan.

I-BOB. ELEKTRON KUTUBXONA: ASOSIY TUSHUNCHALAR, TA`RIFLAR, FUNKSIYALAR, VAZIFALAR

1.1. Elektron kutubxona: asosiy tushunchalar, ta`riflar, funksiyalar, vazifalar.

Bugungi kunda “Elektron kutubxona”, “Elektron katalog” tushunchalari vaqtli matbuotda tez-tez uchramoqda. Axborot resurs markazining elektron kutubxonasi, elektron katalogi tushunchalari ba`zan bilib, ko`p hollarda esa bu tushunchalarning ma`nosiga etmasdan ishlatilmoqda. Elektron kutubxona (EK) qanday yaratilishi kerak? Matnlar muharririda yozilib alohida papkalarga joylangan fayllar to`plami yoki mualliflik huquqiga rioya qilinmasdan, adabiyotlarni skanerlash orqali jamlab, biror-bir “Ma`lumotlar bazasini boshqarish tizimi”dan foydalanib, «Axborot qidirish tizimi»ni yaratish bilan elektron kutubxona yaratdik, - deb da`vo qilish to`g`rimikan? Ko`pchilik axborot resurs markazlarida adabiyotlarni skanerlash orqali ularning elektron shaklga o`tkazishni va oddiy klassifikatsiyalash (alohida papkalarga joylashtirish) orqali elektron kutubxona yaratdik deb o`ylash to`g`rimikan?

Biz kompyuterlashtirilgan, avtomatlashtirilgan, elektron, virtual kutubxona tushunchalarini va ularning funksiyalarini qat`iy farqlay olishimiz kerak.

Kompyuterlashtirilgan kutubxona deb – tegishli hisoblash texnika vositalari (kompyuterlar, telekommunikatsiya vositalari va boshqalar) bazaviy dasturiy vositalar (operatsion sistema, ofis ilovalari) bilan ta`minlangan, ammo kutubxonadagi asosiy axborot jarayonlarini (axborotlarni yig`ish, saqlash, ishlov berish, qidirish va uzatish) avtomatlashtirish imkoniyatini beruvchi avtomatlashtirilgan axborot kutubxona tizimiga ega bo`Imagan kutubxonaga aytildi.

Avtomatlashtirilgan kutubxona (automated library) – bunda, kutubxona jarayonlarining asosiy qismi va axborot-kutubxona xizmati asosan avtomatlashtirish (shaxsiy kompyuterlar, serverlar, tashkiliy texnika vositalari, ixtisoslashgan maxsus dasturiy ta`minot) va telekommunikatsiya vositalari yordamida bajariladi. Kutubxonada avtomatlashtirilgan axborot kutubxona tizimi tatbiq qilingan bo`ladi.

Elektron kutubxona (electronic library) – avtomatlashtirilgan kutubxonaning mahsuli bo`lib, u klassifikatsiyalash va axborotlarni kodlashtirishning yagona tizimiga asoslangan bo`lib, kutubxonaning elektron katalogi, annotatsiyalar va to`liq matnli ma`lumotlar bazalari majmuidan iborat bo`ladi. Axborot-resurs markazining elektron kutubxonasi-axborot tizimi bo`lib, u ma`lum bir qoidalar asosida tizimlashtirilgan va tartiblashtirilgan elektron hujjatlar fondiga (elektron katalog, to`liq matnli va mul`timediali ma`lumotlar bazalari va boshqalar) hamda axborotlarni saqlash, ishlov berish, qidirish va uzatish imkoniyatiga ega bo`lgan dasturiy kompleksga ega bo`ladi.

Elektron kutubxona: umumiyligi va lokal foydalanish uchun mo`ljallangan, dasturiy texnologik vositalar kompleksi yordamida elektron hujjatlardan iborat tartiblashtirilgan fondni yaratish, foydalanish va saqlashni qo`llab-quvvatlovchi axborot sistemasi.

Virtual kutubxona (virtual library) – ikki va undan ortiq elektron kutubxonalar tizimlarini kommunikatsiya vositalari yordamida birlashtirib, axborot-moslik jihatdan asotsiativ aloqalar o`rnatilgan va foydalanuvchilarni axborot manbalari bilan ta`minlaydigan elektron kutubxonalarining tarmoqdagi majmuiga aytildi.

ARMning ma`lumot-bibliografik apparati (MBA) ma`lumot va bibliografik nashrlar fondi, katalog va kartochkalar sistemasi, bajarilgan ma`lumotlar fondi (arxiv)dan iborat bo`ladi. U matbuot asarlari va boshqa hujjatlarni targ`ib qilish va o`qishga maqsadga muvofiq rahbarlik qilish hamda kerakli axborotlarni tezlikda qidirib topishga ko`maklashishga mo`ljallangan. Elektron kutubxonaning ma`lumot bibliografik apparati nimalardan iborat bo`ladi? Elektron katalogi bo`lmagan elektron kutubxonada kerakli adabiyotlarni qidirish samarasi o`ta past darajada bo`ladi. Shu sababli ham elektron kutubxona yaratishda uning elektron katalogini xalqaro talablarni qanoatlantiradigan darajada shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlardagi kutubxonachilik ishi tajribasi bu fikrni tasdiqlab turibdi [7, 9, 15, 6].

Darhaqaqat, elektron kutubxonaga mazkur sohaning klassiklari qanday ta`rif berishgan?

Elektron kutubxonaga berilgan ba`zi bir ta`riflarni eslab o`taylik F.S.Voroyskiy o`zining [3] ishida EKga quyidagi ta`rifni beradi.

Elektron kutubxona bu – fondida elektron shakldagi axborotlarni saqlaydigan va ulardan foydalanishni yo`lga qo`ygan kutubxonadir.

Kennet Doulin esa EKniga o`zining 1984 yili e`lon qilingan “Elektron kutubxona” nomli kitobida quyidagicha ta`riflaydi:

- Resurslarni kompyuter orqali boshqarish;
- Axborot ta`minotchisini axborot iste`molchisi bilan elektron kanallar orqali bog`lash qobiliyati;
- Zarur hollarda xodimlarni elektron jarayonlarga ta`sir ko`rsatish imkoniyati;
- Elektron vositalardan foydalanib, axborotlarni saqlash, ishlov berish va iste`molchilarga uzatish qobiliyati.

1991 yili Buyuk Britaniyada “Elektron kutubxona” dasturining ishga tushirilishi munosabati bilan unga dastlab “Kutubxona, elektron kutubxona deyiladi, agarda uning fondidagi hujjatlarning katta qismi elektron shaklga o`tkazilgan bo`lsa” degan ta`rif berilgan. Bu ta`rifdan ko`rinadiki, to`liq avtomatlashtirilgan kutubxona “Elektron kutubxona” bo`lishi mumkin ekan.

AQSh Massachusset universitetidan Vil`yam Adams o`zining kitobida EKga “Servislarga mos axborotlarning boshqariladigan kollektysi, bunda axborot raqamli shaklda saqlanadi va unga kirish tarmoq orqali amalga oshiriladi” deb ta`rif bergen.

Ya.L.Shrayberg o`zining [6] kitobida elektron kutubxonaga quyidagicha ta`rif beradi, “Elektron kutubxona – bu strukturalashtirish va kirishning umumiy ideologiyasi asosida birlashtirilgan lokal yoki global elektron resurslardir”.

Axborot resurs markazida (ARM) elektron kutubxona yaratish uchun ishni nimadan boshlash kerak? ARM fondidagi adabiyotlarni skanerlash orqali ularni elektron shaklga o`tkazish bilan elektron kutubxona yaratiladmi?

Avtomatlashtirilgan axborot kutubxona tizimi va elektron kutubxona orasida qanday farq bor? Ma`lumotlarni saqlash va uzatishga mo`ljallangan qanday format va standartlardan foydalanish kerak? Quyida mana shu savollarga javob berishga harakat qilamiz.

Dastlab skanerlangan adabiyotlarni qanday formatlarda saqlanishini ko`rib chiqaylik. Adabiyotlarni elektron shaklga o`tkazishda ARMIarning ko`pchiligi oddiy ofis skanerlaridan foydalanishmoqda. Turli o`lchamdagagi hujjatlarni avtomatlashtirilgan holda skanerlashga mo`ljallangan skanerlar juda qimmat bo`lganligi sababli ARMIarda ularni sotib olishga moliyaviy imkoniyatlar yetarli emas. Kitob bibliografik tavsifi yozilgan kartochkani (rangli, 300 dpi) kompyuter xotirasida saqlash uchun TIFF – 3, 79 Megabayt, JPEG – 187 Kilobayt, PDF – 95 Kilobayt (matn bilan birga), DjVu - 7, 5 Kilobayt (matn bilan birga) xotirani egallaydi. Bu yerdan ko`rinadiki, **DjVu formati PDF formatiga qaraganda 10 marta, JPEG formatiga qaraganda 20 marotaba kam xotira egallar ekan.** Demak, elektron kutubxona yaratishda hujjatlarni faqatgina skanerlash emas, balki skanerlangan materialni saqlashda qaysi formatdan foydalanishni ham bilish kerak ekan. Afsuski ko`pchilik hollarda bunga e`tibor berilmayapti.

Axborot resurs markazida elektron kutubxona yaratish uchun ishni nimadan boshlash kerak?

1. Axborot resurs markazi yetarli miqdorda kompyuterlar sotib oladi. ARMDa ichki tarmoq yaratiladi. ARM xodimlarining barchasi kompyuterlardan foydalanishga o`rgatiladi. ARM kompyuterlari Internet tarmog`iga ulanadi. ARM xodimlari Internetdan axborot qidirish, elektron katalogdan (Internetning elektron bibliografik resurslaridan) foydalanishga o`rgatiladi.
2. ARMdagi asosiy axborot jarayonlari (axborotlarni yig`ish, saqlash, ishlov berish, qidirish va uzatish) avtomatlashtirish imkoniyatini beruvchi maxsus dasturiy vosita (avtomatlashtirilgan axborot kutubxona tizimi (AKAT) sotib olinadi va tatbiq qilinadi. AKAT sotib olish bilan cheklanib qolmay, balki ARM xodimlarini undan foydalanishga o`rgatish ham kerak bo`ladi. ARMDa AKATning tatbiq qilinishi ARM fondini ochib beruvchi elektron katalog yaratilishiga olib keladi. Kitob berish, qaytarib olish, “qarzdlorni” aniqlash, kutubxona statistikasini yuritish, kitobxonlarga masofadan xizmat ko`rsatish kabi bir qator jarayonlar avtomatlashtirilgan tarzda kompyuterlar yordamida bajariladi.
3. ARM fondini elektron katalog yordamida ochib berish imkoniyati yaratilgach, kitobxonlarning ehtiyojlarini o`rganish uchun yangi imkoniyatlar ochiladi. ARM statistikasini AKAT orqali olib borish qaysi adabiyotlarning ko`proq o`qilayotganligi, qaysi adabiyotlarga ehtiyoj ko`pligini aniq aytish imkoniyati tug`iladi. Shunday qilib, ARM fondidagi adabiyotlarni elektron shaklga o`tkazishda kitobxonlarning ehtiyojlaridan kelib chiqib ish tutishga sharoit yaratiladi. ARM maxsus skaner sotib oladi va kerakli adabiyotlarni elektron shaklga o`tkaza boshlaydi. Ayni paytda AKAT elektron katalogidagi bibliografik tavsifga kitobning to`liq matni bog`lanadi.

Shunday qilib, ARMning AKAT bazasida elektron kutubxona yaratila boshlanadi. Elektron katalogsiz “Elektron kutubxona” yaratish maqsadga muvofiq emas. Masalan, Siz Internetning biror-bir qidiruv mashinasiga “Informatika” so`zi ishtirok etgan adabiyotni qidirish so`rovini berib ko`ring. Siz 7 000 000 dan ko`p axborotga ega bo`lasiz. Bunday katta axborotlar oqimidan o`zingizga kerakligini topa olasizmi? Umringiz yetarmikan? Elektron kutubxona uchun elektron katalog qidirish samarasini oshirish uchun kerak bo`ladi.

Virtual kutubxona qanday yaratiladi? Ko`pincha kompyuterlashtirilgan kutubxona, avtomatlashtirilgan kutubxona, raqamli kutubxona, elektron kutubxona, virtual kutubxona tushunchalarini aralash holda ishlatalishining guvohi bo`lamiz. Virtual kutubxona bu elektron kutubxonalar majmuining axborot kommunikatsiya vositalari orqali birlashtirishdan hosil bo`ladi. Tarmoq orqali ixtiyoriy elektron kutubxonadan foydalanish - virtual kutubxonadan foydalanish bo`ladi. Shunday qilib, ARMda elektron kutubxona yaratish bosqichlari quyidagicha:

1. Kompyuterlashtirilgan kutubxona.
2. Avtomatlashtirilgan kutubxona.
3. Elektron (raqamli) kutubxona.
4. Virtual kutubxona.

Axborot resurs markazini avtomatlashtirish nimadan boshlanadi?

Axborot resurs markazi va kutubxonalarini rivojlantirishni rejalashtirayotgan axborot resurs markazi, kollej va boshqa tashkilot rahbarlari axborot texnologiyalarini tatbiq qilish, elektron kutubxona yaratishni kompyuterlar va ular uchun dasturiy vositalar sotib olishdan iborat deb o`ylaydi. Ularning fikricha, ARMga qancha ko`p texnika vositalari sotib olinsa, shunchalik ish yaxshi bo`ladi. Texnika va dasturiy vositalarni o`zlashtirish uchun vaqt hamda xodimlarning malakasini oshirish yetarli deb o`ylaydilar. Aslida esa ARM va kutubxonalarda yangi axborot texnologiyalarini, kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish vositalarini joriy qilishga asosli va izchil yondashish zarur.

Quyida ARMda elektron kutubxona yaratish bo`yicha murakkab tizimlar va tizimli tahlilning klassik nazariyasiga hamda chet el tajribalariga asoslanib, tavsiyalar beriladi.

Avtomatlashtirilgan va elektron kutubxonalar yaratish bir qarashda oson ishdek tuyulsada, aslida bu jarayon uzoq davom etadigan murakkab ishdir.

ARMni avtomatlashtirish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

1-Bosqich. Axborot resurs markazi holatini loyihalashtirishdan oldingi tadqiqoti

Bu bosqichda ARM avtomatlashtirayotgan ob`ekt sifatida o`rganiladi. Kutubxonachilik ishi sizning shahringizda, tumanda, viloyatdagi va umuman olganda Respublika bo`yicha holati tahlil qilinadi. Chet ellardagi bu sohada erishilgan tajribalar o`rganiladi.

Bosqichda ko`zda tutilgan maqsad: avtomatlashtirilgan funksiyalarni tatbiq qilish zarurati va maqsadga muvofiqligini aniqlash, avtomatlashtirilgan va elektron kutubxonalar yaratishning holati va bu sohadagi ilg`or tajribalarni o`rganish. U sizning axborot resurs markazingizga mos texnika va dasturiy ta`minotlarni tanlashda yordam beradi, bu esa o`z navbatida resurslarni tejashga imkoniyat yaratadi.

Loyiha oldi tadqiqotlari amaldagi mavjud ARM tashkiliy strukturasini tizimlashtirish imkoniyatini beradi, bu esa o`z navbatida axborot oqimlarini optimallashtirish va avtomatlashtirish vositalarini qo`llashga mo`ljallangan axborot-texnikaviy ta`minotni to`g`ri tanlashga yo`l ochadi.

Bu bosqichda quyidagi eng muhim savollarga javoblar olinadi:

- Sizning ARMMingiz faoliyatini avtomatlashtirishga zarurat bormi? Hozirgi paytda elektron kutubxona yaratishga qay darajada tayyorsiz?
- Hozirgi bosqichda kerakli resurslarga, vositalarga va yuqori malakali kadrlarga egamisiz? Zero kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish va elektron kutubxona yaratish katta moddiy harajatlar hamda ARM xodimlari malakasini oshirishni talab qiladigan uzoq davom etadigan murakkab ishlardan hisoblanadi. Shuning uchun ham bu sohadagi ishlarni boshlamasdan oldin puxta o`ylab, o`z imkoniyatlaringizni xolis baholab, so`ng ish boshlash tavsiya qilinadi.

Loyiha oldi tadqiqotlarini o`tkazish bosqichida quyidagi axborotlarni to`plash va tizimlashtirish lozim:

- ARM fondi to`g`risidagi ma`lumotlar (kitoblar, davriy nashrlar soni). Qimmatli axborot resurslar to`g`risida ma`lumotlar (raqamlashtirilishi kerak bo`lgan ilmiy texnikaviy axborotlar, qadimiylar qo`lyozmalar, nodir kitoblar, eng ko`p so`ralayotgan adabiyotlar);
- ARMda mavjud hisoblash va tashkiliy texnika vositalari to`g`risida (ularning markasi va ishlab chiqilgan yili ko`rsatilgan holda) ma`lumotlar;
- Telekommunikatsiya vositalarining (telefon liniyalari, lokal tarmoqlar, radio to`lqinli va optik tolali aloqalar) holati va sifati to`g`risidagi ma`lumotlar;
- ARMda Internet va elektron pochtaning mavjudligi;
- ARMMing tashkiliy tuzilmasi, kadrlar tarkibi, xodimlarning malaka darajasi. Hisoblash texnikasi vositalarini va lokal tarmoqni boshqara oladigan yuqori malakali xodimlarning mavjudligi to`g`risidagi axborotlar.

Bu axborotlar kelgusida ARMMni axborotlashtirish uchun qancha kompyuter, tashkiliy texnika va telekommunikatsiya vositalari kerakligini asoslashda asqotadi.

2-Bosqich. ARMMni avtomatlashtirish uchun texnik topshiriqni ishlab chiqish

Bu bosqichda avtomatlashtirilgan axborot kutubxona tizimining axborot, til, dasturiy texnik, kadrlar, tashkiliy texnologik va boshqa ta`minotlariga qo`yiladigan asosiy talablar aniqlanadi. Birinchi bosqichda olingan natijalarga asoslanib, texnika vositalarining soni, sifati hamda texnik xarakteristikalarini aniqlanadi. Printer, skaner, modem va boshqa qurilmalarning sifat ko`rsatkichlari aniqlanadi.

Texnika vositalari orasida ARM elektron fondi saqlanishi mo`ljallanayotgan serverning texnik xarakteristikalariga katta e`tibor berish lozim, zero ma`lumotlarning ishonchli saqlanishi va ulardan samarali foydalanish unga bog`liq. Texnik ta`minotga qo`yilgan talab, ARMni avtomatlashtirish uchun qanday texnika vositalari (tashkiliy texnika) sotib olish kerak? – degan savolga javob berishi kerak.

Bibliografik ma`lumotlarni saqlash va almashtirishga mo`ljallangan formatlar (Dublin Core, UNIMARC, USMARC va boshqalar) tanlanadi.

Avtomatlashtirilgan kutubxona uchun dasturiy ta`minot tanlash asoslanadi. Bu yerda asosiy e`tibor avtomatlashtirilgan kutubxona-axborot tizimi (AKAT) va ARMDa ishlatishga mo`ljallangan boshqa dasturiy vositalarni tanlashga e`tibor qaratiladi. ARM uchun AKAT tanlaganda quyidagi me`yorlarni inobatga olishni taklif qilamiz:

- Avtomatlashtirilgan ARMDa ishlov berishga mo`ljallangan axborotlar hajmi (ARM fondi). AKATlar turli tipdagi ARM va kutubxonalariga mo`ljallanganligi sababli ham ularagini ma`lumotlar bazalarida axborotlarni saqlash va qidirish tezligi ma`lum bir cheklashlarga ega bo`ladi;
- AKATning funksional imkoniyatlaridan (avtomatlashtirilgan ish o`rinlari (AIO` faqat sizning ARMINGIZ uchun kerak bo`lganlarini tanlash. Masalan: kollej, litsey va maktab qoshidagi ARMLar tarkibida “Fondni komplektlash” bo`limi yo`q, bunday holda “Fondni komplektlovchi”ning AIO` sotib olinishi kerakmi? Zamonaviy AKATlar tarkibidagi AIO`lar elektron katalog bazasini shakllanirish, fondni komplektlash, kitob berish va qaytarib olish, axborotlarni qidirish va ularga buyurtmalar berish, ARM xodimlarini boshqarish, buxgalteriya hisobi va boshqa bir qator funksiyalarni bajara oladi;
- Dasturiy texnika vositalarining narx xarakteristikasi. Yuqorida ko`rib chiqilgan xarakteristikalar bevosita tanlangan vositalarning narxiga ta`sir ko`rsatadi. AKAT tarkibida AIO` qancha ko`p bo`lsa, u shuncha ko`p funksiyalar bajaradi, AKAT qanchalik katta hajmdagi axborotlarga ishlov bersa, u shunchalik qimmat turadi. Zamonaviy AKATlar bir necha yuz AQSH dollaridan tortib, to yuz ming AQSH dollarigacha baholanishi mumkin.

3-Bosqich. Ishchi texnik loyihalash

Faraz qilamiz, siz ARMDi avtomatlashtirish uchun zarur bo`lgan barcha dasturiy texnik vositalarga egasiz. Dastlab siz sotib olgan vositalarni texnik topshiriqda ko`rsatilgan spetsifikatsiyaga mosligini tekshirib ko`rishingiz lozim.

Shunday qilib, siz avtomatlashtirilgan ARM yaratishga tayyorsiz va bunda quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- Montaj va sozlash ishlarni tashkil qilish va o`tkazish. Odatda bu ishlarni bajarish uchun mutaxassislar taklif etiladi;
- Dasturiy ta`minotni sozlash. O`z ichiga operatsion sistemani, maxsus dasturiy ta`minotni o`rnatish, nazorat misollari yordamida testlar o`tkazishni oladi;
- O`tkaziladigan ishlar bilan bir qatorda kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlashga katta e`tibor qaratilishi lozim. Ular AKATlar bilan ishslash, Internet/Intranet tarmoqlarida axborot qidirish, elektron pochta xizmatida foydalana olish malakasiga ega bo`lishlari kerak;
- Avtomatlashtirilgan usullarni kutubxonachilik ishida qo`llash ARMdagi tashkiliy tuzilmaning ham o`zgarishiga olib keladi. Avtomatlashtirilgan ARM bu- axborotlarga ishlov berishning yangi shakligina emas, balki ARMdai mehnatni tashkil qilishning ham yangi shaklidir. Bunda lavozim yo`riqnomalari faqat ijrochilar uchun emas, balki rahbarlar uchun ham o`zgaradi. ARM rahbari avtomatlashtirilgan ARM bosh direktori yoki uning bosh ta`minotchisiga aylanishi maqsadga muvofiq. Chunki uning avtomatlashtirish sohasidagi bilimi, malakasi ARMdagi avtomatlashtirilgan tizimning naqadar samarali ishslashiga sababchi bo`ladi. ARMdai yangi bo`limlar ochiladi, kerak bo`limganlari qisqartiriladi. Katta ARMLarda texnika vositalari ko`p bo`lgan hollarda u yerda “Avtomatlashtirish” bo`limini ochish maqsadga muvofiq. Chunki ko`p sonli texnika vositalariga xizmat ko`rsatish uchun maxsus malakaga ega bo`lgan xodimlar talab qilinadi. Bu bo`lim ARMdagi dasturiy texnik vositalarni bir maromda ishslashini sha`minlashi, kerak bo`lganda xodimlarga maslahatlar berishi kerak bo`ladi.

4-Bosqich. Avtomatlashtirilgan kutubxonani tajriba tariqasida va doimiy ishslashga tayyorlash

Avtomatlashtirilgan kutubxona tajriba sinov tariqasida ishlatilganda asosan tizim testlar bilan sinab ko`riladi, kamchiliklar aniqlanadi, tizimdan xodimlarning va foydalanuvchilarning ishlay olish qobiliyati aniqlanadi. AKAT funksiyalari ishlatib ko`riladi. Dastlabki bosqichlarda yo`l qo`yilgan xatolar to`g`rulanadi.

Tajriba sinov ishlari quyidagi savollarga javob berishi kerak:

- Kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirishga mo`ljallangan barcha funksiyalar bajarilayaptimi? Ya`ni ko`zda tutilgan barcha AIO` to`liq ishchonchli ishlayaptimi?
- ARM bo`limlari orasida axborot almashinushi to`g`ri va sifatli bajarilayaptimi?
- Kutubxona axborotlariga avtomatlashtirilgan holda ishlov berishga o`tish uchun kutubxona xodimlarining malakasi yetarlimi?

Barcha kamchiliklar bartaraf qilingandan so`ng, avtomatlashtirilgan kutubxona doimiy ravishda avtomatlashtirilgan rejimga o`tishi mumkin. Bu ARMni avtomatlashtirishning yakuniy bosqichi hisoblanadi va unda real protseduralar, axborotlarni kiritish ishlov berish va avtomatlashtirilgan holda xizmat ko`rsatishga o`tiladi. Bu bosqichda texnik topshiriqda ko`zda tutilgan barcha funksiyalarining to`liq bajarilishiga erishish zarur.

5-Bosqich. Bevosita elektron kutubxona yaratish

Elektron kutubxona yaratish vositasi sifatida AKATdan foydalanish tavsiya qilinadi. Elektron kutubxona o`z ichiga elektron katalog, elektron shakldagi hujjatlar, kutubxonadan foydalanuvchilar to`g`risidagi ma`lumotlar bazalarini oladi. Elektron kutubxona ARMdA quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Matnli, video, mul`tiplikatsiya, mul`timediya, imetatsion modellashtirish tizimlari ko`rinishidagi turli shaklda taqdim qilingan qimmatbaho ta`limiy va ma`lumotnomma-axborot resurslariga keng qamrovli kirishni ta`minlash;
- Elektron katalog yordamida kerakli axborotlarni tezlikda qidirib topish. Qidirish tezligi an`anaviy katalogdan qidirishga qaraganda bir necha yuz marotaba tez bajarish;
- ARM kitobxonlari va undan foydalanuvchilarning ehtiyojlariga mos katta hajmdagi ilmiy, ta`limiy, entsiklopedik hamda ma`lumotlar bazasini shakllantirish va saqlash.

Elektron kutubxonaning elektron katalogi uning eng murakkab va sermehnat talab qiladigan qismi hisoblanadi.

Elektron kutubxonada to`liq matnli ma`lumotlar bazasi quyidagicha shakllantiriladi:

1. ARM o`z kuchi bilan bosma yoki qo`lyozma hujjatlarni skanerlash (fotografiya, klaviatura) orqali yaratadi va elektron katalog orqali tizimga kiritadi;
2. Internet/Intranet tarmoqlaridan erkin foydalanishga qo`yilgan resurslardan ko`chirib olish;
3. Boshqa shaxslar yoki tashkilotlarning bazalaridan kelishuv orqali elektron resurslarni olish.

Keyingi boblarda bibliografik tavsifning xalqaro kataloglashtirish talablariga mos keladigan elektron kutubxona yaratishga e`tibor qaratiladi.

1.2. Elektron kutubxonaning elektron katalogi

Elektron katalog – elektron kutubxonaning asosiy elementi hisoblanadi. Elektron katalogi bo`lmagan elektron kutubxonani “elektron kolleksiya” ham deb atash mumkin. Elektron kutubxona fondi elektron shakldagi resurslardan iborat bo`lgani sababli elektron resurslar tavsifini tuzishga mo`ljallangan “Dublin yadrosi” metama`lumotlaridan foydalanish maqsadga muvofiq [13, 7, 11].

Bizga ma`lumki an`anaviy kutubxona katalogi kutubxona fondidan alohida joyda saqlanadi va katalog kitoblar fondini kitobxonga ochib berishga xizmat qiladi. Kitobxon katalogdan foydalanishi uchun kutubxonaga borishi kerak. Elektron kutubxonaning elektron katalogining har bir elektron kartochkasi elektron kutubxonadagi har bir hujjatga bog`langan bo`ladi va unga masofadan kirish

mumkin. Demak, elektron kutubxonaning elektron katalogi elektron kutubxona fondidagi elektron resurslar tavsifini yaratish imkoniyatiga ega bo`lishi zarur. Rivojlangan mamlakatlar kutubxonachilik ishida elektron resurslar tavsifini yaratishda “Dublin yadrosi” metama`lumotlaridan foydalaniladi (1-rasm). Internet resurslarini ham mazkur metama`lumotlardan foydalanib yaratish ularni tarmoqda qidirish imkoniyatini kengaytiradi va Internetning cheksiz axborotlar ummonidan keraklisini topishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu tufayli ham rivojlangan mamlakatlarning ko`pchiligidagi “Dublin yadrosi” metama`lumotlari elektron resurslar tavsifini yaratishda qo`llaniladi (1.1-rasm).

Axborot kommunikatsion texnologiyalarning ARM, AKM va kutubxonalarga tatbiq qilinishi elektron kutubxonalarning rivojlanishiga olib kelar ekan, O`zbekiston kutubxonachilik ishida ham bu boradagi jahon tajribasini o`rganish, xalqaro standartlardan foydalanib, jahon axborot fazosiga chiqishni dolzarb vazifalar qatoriga qo`yadi, zero ilg`or tajribalarni chuqur o`rganmay yaratilgan elektron kutubxonaning samarasini kutilgan natijani bermaydi.

1.2.1. Elektron katalog yaratish tamoyillari

«Parij tamoyili» nomi bilan mashhur bo`lgan tamoyillar haqidagi qoidalar 1961 yil kataloglashtirish tamoyillari bo`yicha o`tkazilgan Xalqaro konferentsiyada ma`qullangan edi. Uning maqsadi – kataloglashtirishda xalqaro standartlashtirishning asosi bo`lib xizmat qilish – shubhasiz amalga oshdi: kataloglashtirish bo`yicha shu vaqtgacha butun dunyoda ishlab chiqilgan ko`pgina qoidalar aynan, yoki hech bo`limganda, ko`p jihatdan Parij tamoyillariga mos kelardi.

Qirq yildan oshiqroq vaqt ichida kataloglashtirishning umumiy xalqaro tamoyillari yanada zarurroq bo`lib qoldi, chunki hamma katalogchilar, kitobxonlar ham butun dunyoda *ORAS* elektron kataloglarni keng qo`llay boshladilar.

Endilikda, ya`ni XXI asr boshida, *IFLA* Parij tamoyillarini elektron kataloglar hamda ma`lumotlarning boshqa bibliografik bazasi oldida qo`yilgan vazifalar nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda moslashtirishga harakat qilmoqda. Bu vazifalarning ichida eng dastlabkisi – katalogni foydalanuvchilarga qulay qilishdan iborat.

Mazkur yangi tamoyillar Parij tamoyillarining qo`llanish doirasini yanada kengaytirib, ularning ta`sirini matnli asarlardan tortib har qanday materialga tatbiq qilish mumkin. Chunonchi, nafaqat sarlavhalarni tanlash, balki uning shaklini bibliografik va kutubxona kataloglarida foydalaniladigan qoidalarda ham qo`llash imkonini beradi. Shunday qilib elektron kataloglashtirishda “Parij tamoyillari” nomini olgan kataloglashtirish qoidalari bilan tanishib chiqamiz.

Tamoyilning loyihasi quyidagi sohalarga ham qo`llaniladi:

- Qo`llanish sohasi;
- Ob`ektlari, atributlari va aloqalari;
- Katalog funksiyasi;
- Bibliografik sharhi (tavsifi);
- Kirish nuqtasi;
- Avtoritet qaydlari;
- Izlash imkoniyatlarining asoslari.

Ushbu yangi tamoyillar jahonning eng boy kataloglashtirish an`analariga, shuningdek, IFLA tomonidan «Bibliografik tavsiflarga funksional talablar» (*FRBR:Functional Requirements of Bibliographic Records*) hamda «Avtoritet tavsiflar va ularni nomerlashga funksional talablar» (*FRANAR:Functional Requirements and Numbering of Authority Records*) hujjatlarda ishlab chiqilgan kontseptual modellarga asoslanadi, ular esa Parij tamoyillarini mazmunan kataloglashtirish sohasiga qo`llaydi.

Mazkur tamoyillar bibliografik va Avtoritet ma`lumotlarning xalqaro almashinuviga yordam beradi, hamda kataloglashtirish qoidalarini tuzuvchilarga kataloglashtirishning xalqaro qoidalarini ishlab chiqishda yordam beradi deb umid qilamiz.

Qo`llanish sohasi

Ushbu hujjatda belgilangan tamoyillar kataloglashtirish qoidalarini rivojlantirish uchun qo`llanma sifatida xizmat qilishga mo`ljallangan. Ular bibliografik va Avtoritet tavsiflar hamda zamonaviy kutubxona kataloglarida qo`llaniladi. Ushbu tamoyillar shuningdek, kutubxonalar, arxivlar, muzeylar va boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan bibliografiyalar va fayllarda ham qo`llanilishi mumkin.

Tamoyillar tavsifli va mazmunan kataloglashtirishning barcha turlariga kelishuvchanlik bilan yondoshishni belgilaydi.

Kataloglashtirish qoidalarini ishlab chiqishda asosiy e`tibor katalogdan foydalanuvchilarga imkon qadar qulaylik yaratishga qaratilgan bo`lishi kerak.

Bibliografik tavsiflarning ob`ektlari

Bibliografik tavsiflarni tuzayotganda, intellektual yoki badiiy ijod mahsulotlarini o`zida mujassamlashtirgan quyidagi ob`ektlar e`tiborga olinishi lozim:

- Asar;
- Ifodalaniш;
- Timsoli;
- Jismoniy birlik.

Bibliografik tavsiflar odatda timsollarni aks ettiradi. Ular o`zida asarlar to`plami, alohida asar yoki asarning tarkibiy qismini mujassam etadi. Timsollar bir yoki bir nechta jismoniy birlikda berilishi mumkin.

Qoida bo`yicha har bir jismoniy format uchun alohida bibliografik tavsif yaratilishi kerak.

Aloqalari

Ob`ektlararo bibliografik ahamiyatga ega bo`lgan aloqalar katalogda o`z aksini topishi kerak.

Katalogning funksiyalari

Katalogning funksiyalari – mijozga quyidagi imkoniyatlarni yaratishdan iborat:

Fondda bibliografik manbalarini topish (real mavjud yoki virtual), ya`ni atributlar yoki manbalar aloqaviyligidan foydalanilganlar.

- Bitta manbaning o`rnini aniqlash;
- Manbalar guruhining o`rnini aniqlash.

Bitta asar bilan aloqador barcha manbalar;
Mazkur shaxs avlod (sulola) yoki tashkilot asarning ifodalanishning barcha shakllari;

Ushbu mavzu bo`yicha barcha manbalar.

Boshqa kriteriyalar bilan xarakterlanadigan barcha manbalar (chunonchi, til, nashr mamlakati, nashr sohasi, fizik hajmi va h.k.) odatda ular qidiruv natijalarini chekllovchi qo`shimcha me`yorlar sifatida qo`llaniladi.

Foydalanuvchining talablariga mos keladigan bibliografik manbalarni tanlash (ya`ni, mazmun nuqtai nazaridan, fizik formati va h.k. mijozning so`roviga mos kelmasligi sababdan rad etish);

Tavsiflangan fizik birlikni sotib olish yoki ruxsat olish (ya`ni, kitobxon izlayotgan kitobini sotib olishi yoki vaqtincha foydalanishi uchun kerakli axborot bilan ta`minlash va hokazo, yoki on-layn aloqa orqali elektron doiraga kirishini ta`minlash);

Katalogda yo`nalishni to`g`ri aniqlash (bibliografik axborotni mantiqan tashkil eta olish va qidiruv usulining aniq tavsiya yordamida asarlar, iboralar, timsollar va fizik birliklarning o`zaro bog`liqligini aniqlash).

Bibliografik tavsif

Bibliografik tavsiflarning tavsifiy qismi m`lum bir xalqaro standartga asoslangan bo`lishi kerak;

Tavsif katalog yoki bibliografik faylning maqsadiga qarab ma`lumotlarning to`liqligi darajasini ta`minlashi zarur.

Kirish nuqtasi. Umumiyoq qoidalar

Bibliografik va Avtoritet tavsiflarni izlash uchun kirish nuqtasi umumiyoq tamoyillarga muvofiq tarzda shakllanishi kerak; Ular nazorat qilinadigan hamda nazorat qilinmaydigan bo`lishi mumkin.

Nazorat qilinmaydigan kirish nuqtasida asosiy sarlavhalar qanday bo`lsa shundayligicha kiritiladi, shuningdek bibliografik tavsifning xohlagan joyida uchrashi mumkin bo`lgan muhim so`zlar qo`shimcha ravishda kiritilishi mumkin.

Nazorat qilinadigan kirish nuqtasi manbalar guruhini izlashda zarur bo`lgan bir xillikni ta`minlaydi va ular standartga muvofiq shaklga keltirilishi lozim.

Kirish nuqtasini tanlash

Bibliografik qaydlarni kirish nuqtasi sifatida asar sarlavhasi va diskreptorlar (nazorat qilinadigan), timsol nomi (odatda nazorat qilinmaydigan), shuningdek, asarni yaratganlarning ismlarining nazorat qilinadigan shakllari foydalaniladi.

Bibliografik qaydlarga qo`shimcha kirish nuqtalari boshqa shaxslarning nazorat qilinadigan shakli qo`llanilishi mumkin.

Avtoritet qaydlarda kirish nuqtasi sifatida ob`ektning nomi, shuningdek uning variantli shakli Avtoritet kirish nuqtasiga qo`shiladi.

Qo`shimcha kirish nuqtasi aloqador nomlar xizmat qilishi mumkin.

Muqobil sarlavha

Ob`ekt uchun muqobil sarlavha ob`ektni tegishli shaklda identifikatsiya qiluvchi nomlanishi, ya`ni timsolda ustunlik yoki nomning eng maqbul shaklida bo`lishi, har holda katalogdan foydalanuvchiga qulay (masalan, «umumqabul qilingan nom») bo`lishi lozim.

Tili

Agar nomlanish bir necha tilda taqdim etilgan bo`lsa, axborotga asoslangan sarlavha asl nusxa tilida va yozuvida berilgan timsol afzal ko`riladi.

Shaxs nomlarining shakllari

Agar shaxs nomi bir necha so`zdan iborat bo`lsa, boshlang`ich so`zni tanlash shaxs nomi shakliga muvofiq tarzda, yoki muallif fuqarosi bo`lgan mamlakat qoidalari asosida aniqlanadi;

Agar fuqaroligini aniqlash imkonи bo`lmasa,yoki asosiy shaxs yashaydigan mamlakatda qabul qilingan nomlanish shakliga muvofiq;

Ushbu shaxs asosan aynan qaysi mamlakatda yashashligini aniqlab bo`lmasa, nomning boshlang`ich so`zi shaxs odatda foydalanadigan til birligiga muvofiq tarzda tanlanadi. Tanlov timsollar yoki asosiy ma`lumotlarga asoslanadi.

Avlodlar nomlanishi shakllari (sulolalar nomlanishi)

Agar avlodning nomi (sulola nomi) bir nechta so`zdan iborat bo`lsa, bosh so`z ushbu avlod (sulola) qaysi mamlakatda asotsiatsiyalangan bo`lsa o`sha shaklga muvofiq aniqlanadi, yoki ushbu avlod (sulola) qaysi mamlakat bilan asotsiatsiyalanganini aniqlash mumkin bo`lmasa, unda mazkur avlod (sulola) odatda qaysi til normalaridan foydalansa o`shanga muvofiq tanlanadi.

Tashkilotlarni nomlash shakllari

- Yurisdiktsiya uchun Avtoritet sarlavha ushbu katalogdan foydalanuvchilarining ehtiyojlariga muvofiq tarzda zamonaviy shaklda hudud nomi tili va yozuvida ifodalanishi kerak;
- Agar tashkilot o`z mavjudligi davrida turli nomlanishlardan foydalangan bo`lsa, unda ahamiyatga molik bo`lgan har bir o`zgarishga huddi yangi ob`ektday qaralishi va tegishli Avtoritet qaydlar har bir ob`ekt uchun ma`lum dalillar bilan bog`lanishi – shuningdek qaralishi (oldin,keyinchalik) lozim.

Unifikatsiyalangan sarlavhalar shakli

Unifikatsiyalangan sarlavha mustaqil yoki boshqa nomlar kombinatsiyasida ishlatilishi mumkin, yoki sarlavha tashkilot nomi, manzili, tili, sanasi kabi identifikatsiyalovchi elementlar bilan to`ldirilishi mumkin.

- Unifikatsiyalangan sarlavha sifatida original sarlavhadan yoki ushbu asar timsollarida eng ko`p uchraydigan sarlavhadan foydalanish mumkin. Ba`zi holatlarda asl sarlavhasi o`rniga asos sifatida Avtoritet sarlavha uchun katalog tili va yozuvida umumqabul qilingan sarlavha tanlanishi mumkin.

Avtoritet tavsiflar

Avtoritet tavsiflar shaxs, avlod (sulola), tashkilot, asar, ifoda, timsol, fizik birlik, kontseptsiyalar, predmetlar, hodisalar va manzil kabi ob`ektlarga kirish nuqtasi sifatida qo`llaniladigan Avtoritet nom va dalil shakllarini nazorat qilib turish uchun yaratiladi.

Agar shaxs, avlod (sulola) yoki tashkilot variantli nomlar yoki variantli shakllarni qo`llasa, bitta ism va bitta nom shakli har bir konkret shaxs uchun Avtoritet sarlavha sifatida tanlanadi. Agar asar sarlavhasining bir nechta variantlari bo`lsa, unda bitta sarlavha unifikatsiyalangan sarlavha uchun tanlanadi.

Qidiruv va qidiruv natijalari

Kirish nuqtalari bo`lib, quyidagi bibliografik qaydlar xizmat qiladi:

Bibliografik va Avtoritet tavsiflar va ular bilan aloqador bibliografik manbalar qidiruv natijalarini ishonchligini ta`minlaydi va qidiruv natijalarini cheklaydi.

Qidiruv usullari

Mazkur katalog yoki bibliografik faylda ism va nomlanish qidiruv ob`ekti bo`ladi. Masalan: ismlar, kalit so`z, ibora, qisqartish va boshqalar.

Bibliografik va Avtoritet tavsifning har bir ob`ektidan asosiy xarakteristika va aloqalarda yashiringan kirish nuqtalari majburiy hisoblanadi. Bibliografik tavsiflarda majburiy kirish nuqtalari quyidagilar;

- Muallifning nomi yoki agar mualliflar bir nechta bo`lsa, ulardan birinchi ko`rsatilgan muallif nomi;
- Kataloglashtirgan xodim tomonidan ifodalangan asosiy sarlavha yoki sarlavha;
- Nashr yoki alohida nashrning chiqarilgan yili;
- Unifikatsiyalangan sarlavha (asar uchun, ifoda uchun);
- Predmetli rubrikalar va tematik terminlar klassifikatsiyali indekslar;
- Tasvirlanayotgan ob`ekt uchun standart nomerlar, identifikatsiyalar va «muhim sarlavha».

Avtoritet tavsif uchun majburiy kirish nuqtalari quyidagilar:

- Ob`ektning Avtoritet nomi yoki sarlavhasi;
- Mazkur ob`ekt nomlanishining variantli shakllari yoki sarlavhasi.

Qo`shimcha kirish nuqtalari

Bibliografik tasvir yoki Avtoritet tavsiflarning boshqa sohadagi atributlari fakul`tet kirish nuqtalari sifatida xizmat qilishi mumkin. Ushbu bibliografik qayd atributlari cheklanmagan va ular quyidagilarni jamlaydi:

- Birinchidan tashqari boshqa mualliflarning nomini;
- Muallifning nomini, shuningdek shaxslar, avlodlar va tashkilotlar nomini, ular yaratuvchi bo`lmasligi mumkin, lekin boshqa vazifani bajarishi mumkin;
- Parallel sarlavha, muqova sarlavhasi va h.k.;
- Seriyallarning unifikatsiyalangan sarlavhalari;
- Bibliografik tavsiflarning identifikatsiyalar;
- Tili;
- Nashr qilgan mamlakat;
- Fizik shakli.


Avtoritet tavsiflar uchun mazkur atributlar shuningdek, cheklangan va u o`zida quyidagilarni jamlashi mumkin:

Aloqador ob`ektlarning nomi va sarlavhasi Avtoritet tavsiflarning identifikatorlari.

Shunday qilib, elektron kutubxonaning elektron katalogini yaratishda xalqaro tamoyillarga amal qilish, elektron katalog yaratishda korporativ usullardan foydalanishga imkoniyat yaratadi. Bu esa o`z navbatida kataloglashtirish

harajatlarini kamaytiradi, jarayonni tezlashtiradi va ayni payda ish sifatini oshiradi.


Elektron resurs tavsifini yaratishga mo`ljallangan Dublin Yadrosi metama`lumotlari



1.1-rasm

1.3. Elektron katalog ma`lumotlar bazasini yaratish texnologiyasi

Elektron katalog (EK) avtomatlashtirilgan kutubxona – axborot tizimining (AKAT) asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. AKATning EK bazasiga asosan ikki axborotlar oqimi: kitobxonlar to`g`risidagi va axborot resurs markazi (ARM) fondidagi hujjatlar (kitoblar, davriy nashrlar, elektron resurslar va boshqa shakldagi materiallar) to`g`risidagi ma`lumotlar kiradi. Elektron katalog kitobxonning so`roviga ko`ra qidiruv farmoyishlari asosida ma`lumotlar bazasidan (MB) qidirib topilgan hujjatlar to`g`risidagi bibliografik axborotlarni (ba`zi bir hollarda to`liq matnli hujjatlarni) monitorda aks ettiradi. Printerda bosib chiqarish va fayl ko`rinishida xotirada saqlash imkoniyatini yaratadi. Elektron katalogning yana bir funksiyasi bu – elektron bibliografik axborotlarni ishonchli saqlashdir. EKning funksional sxemasi quyida keltirilmoqda.



Elektron katalog bazasi tuzilmasini loyihalash elektron katalog yaratishda eng muhim ish hisoblanadi. Ma`lumotlar bazasini to`g`ri shakllantirish EKdan foydalanish samaradorligining garovi hisoblanadi. Bizga ma`lumki, AKATlar tarkibidagi EK MBning tuzilmasi o`zaro bog`langan va har biri ma`lum bir xossalarga ega bo`lgan maydonlardan iborat. Bu maydonlarning soni turli AKATlarda ularning ichki formatlari qandayligiga qarab turlichadir. Masalan, UNIMARC formati asosidagi EK MB tuzilmasida 260 dan ortiq asosiy maydonlar 600 dan ortiq fakul`tativ maydonlar va maydonostilar mavjud.

Faraz qilamiz, biz yaratmoqchi bo`lgan EK MB tuzilmasi o`nta maydondan: Muallif, sarlavha, bilimlar sohasi, fanlar, annotatsiya, nashr tili, chiqish ma`lumotlari (nashr etilgan joy, nashriyot nomi va nashr etilgan yil), ochqich so`zlar, KBK indekslari va fizik tavsifdan iborat bo`lsin.

Dastlab, EK MB kitob muallifi to`g`risidagi ma`lumotni kirituvchi maydonni yaratishni ko`rib o`taylik. Buning uchun KARMAT-EK tizimining “Administrator” avtomatlashtirilgan ish o`rnidan foydalanamiz. Tizim ishga tushirilgach (Login = admin; Parol = 11) berilgach quyidagiga ega bo`lamiz (1-rasm).

The screenshot shows the KARMAT-EK software interface. At the top, there is a logo with the word "KARMAT" in large letters, followed by a blue "N". Below the logo, the text "Ishchi sahifa: Dublin yadro" and "Katolog: ИТА" are displayed. On the left, a sidebar menu is open under "Boshqaruvchi" and "admin Chiqish". Under "Menyu", the "Sozlash" section is expanded, showing options like "Maydonlar", "Kiritish shakllari", "Qidirish shakllari", etc. The main window title is "Yangi maydon qo'shish". A table lists districts (Maydon) with their codes (Kod), names (Qism), and status (Aktiv). The table rows are:

Kod	Maydon	Qism	Tartib	Maydon	Qism	Nomi(uzb)	Aktiv
250	245		0			Сарлавча	Aktiv
244	999	A	1			РПТИ	Aktiv
257	245	A	1			Сарлавча	Aktiv
279	245	B	1			Сарлавча хақидаги мәлумот	Aktiv
271	019		2			Мавзу (предмет)	Aktiv
273	019	A	2			УДК	Aktiv

1-rasm

EK MB maydonlarini yaratish uchun “Maydonlar” tugmasini bosamiz va yangi maydon yaratish imkoniyatiga ega bo`lgan sahifaga o`tamiz (2-rasm).

The screenshot shows the KARMAT-EK software interface. At the top, there is a logo with the word "KARMAT" in large letters, followed by a blue "N". Below the logo, the text "Ishchi sahifa: Dublin yadro" and "Katolog: ИТА" are displayed. On the left, a sidebar menu is open under "Boshqaruvchi" and "admin Chiqish". Under "Menyu", the "Sozlash" section is expanded, showing options like "Maydonlar", "Kiritish shakllari", "Qidirish shakllari", etc. The main window title is "ELEKTRON KUTUBXONA TIZIMI KARMATDAN FOYDALANISH QOIDALARI". It contains text and two numbered steps:

Elektron kutubxona tizimi **KARMAT**ning har bir resursi quyidagi uchta maqomdan biriga ega:

1. Elektron resursdan "ERKIN FOYDALANISH". Bunday holda foydalanuvchi "Qidirish" va "Kengaytirilgan qidirish" tugmalaridan foydalanib elektron katologdan kerakli ma'lumotlarni izlash, referat va to'liq matnni ko'rib chiqishi mumkin.
2. Elektron kutubxonada "RO'YXATDAN O'TGAN HOLDA FOYDALANISH". Bunday holda foydalanuvchi dastlab elektron kutubxonada ro'yxatdan o'tib tegishli login va parolni o'z elektron pochtasiga orqali qabul qilib oladi hamda elektron kutubxonaning foydaluvchisi sifatida elektron resurslarning to'liq matnlarini ko'rish huquqiga ega bo'ladi. Elektron kutubxonada ro'yhatdan o'tish uchun interfeysdagi "Registratsiya" tugmasi bosiladi va tegishli maydonlar to'ldiriladi. "Qo'shish" tugmasini bosish orqali elektron kutubxonasi foydalashtirilganda kerakli ma'lumotlar saqlanadi.

2-rasm

Bu sahifadagi “Yangi maydon qo’shish” tugmasini bosish orqali tizimning “Konstruktori”ga o’tamiz va bu yerda bizga kerak bo’lgan xossalarga ega bo’lgan maydonni yaratishga kirishamiz (3-rasm).

Konstruktordagi har bir maydonga berilishi mumkin bo`lgan xossalarni ko`rib chiqaylik.

1. “Maydon” maydoniga Dublin Core (MARC 21 va UNIMARC) formatlaridagi maydon tartibini belgilovchi raqamlar kiritiladi, masalan “Muallif” MARC 21 da 100-maydon bilan belgilansa UNIMARC formatida 700-maydon bilan belgilanadi.
2. “Tartib” maydoniga maydonlar ketma-ketligi tartibini bildiruvchi raqam kiritiladi. Masalan, muallif familiyasi, ismi, sharifi maydonlar ketma-ketligida 190 o`rinda tursin, bunday holda mazkur maydonga 190 qiymati beriladi.
3. “Nomi (o`zb)” maydoniga – maydon nomini xarakterlovchi ma`lumot kiritiladi. Masalan, bibliografik yozuvning asosiy sarlavhasi-shaxs nomi o`zbek tilida kiritiladi.
4. “Nomi (rus)” maydoniga – maydon nomini xarakterlovchi ma`lumot kiritiladi. Masalan, bibliografik yozuvning asosiy sarlavhasi – shaxs nomi rus tilida kiritiladi.
5. “Takrorlanish soni” maydoniga maydonning necha marotaba takrorlanishi to`g`risidagi ma`lumot kiritiladi. Masalan, kitob muallifiga tegishli ma`lumotlar (Familiyasi, ismi, sharifi avlodlar nomeri, tituli (unvoni), sana, to`liq nom) 5 ta bo`lsa, mazkur maydonga 5 raqami kiritiladi.

3-rasm

6. “Maydon tipi” nomli maydonga beriladigan qiymatlarni batafsil ko`rib chiqamiz.

KARMAT tizimida MARS formati maydonlarni tavsiflash maqsadida, quyidagi maydon tiplari kiritilgan:

- Satr
- Ma`lumotnama
- Satr ma`lumotnama
- Sana
- Sonli
- Matn
- To`plam
- Fayl hujjat
- Tiplanmagan

6.1 Satr – oddiy satr ma`lumotlarni kiritish uchun ishlatiladi. Bu tipdagi maydonlar qidirishda ishlatilmaydi.

6.2 Sonli – 0-9 faqat sonli ma`lumotlarni kiritishda ishlatiladi (masalan, betlar soni, nusxalar soni va h.k.). Satr tipidagi maydonlar kabi sonli tipli maydonlar ham qidirish jarayonida ishlatilmaydi.

6.3 Sana – sonli tipga o`xshash bo`lib, yagona farqi bu tipda maydonlar yil (YYYY) yoki sana (DD.MM.YYYY) formatdagi ma`lumotlar kiritishga mo`ljallangan.

6.4 Matn – satr tipli ma`lumotlarning kengaytirilgan shakli bo`lib, bu tipdagi maydonlarga katta o`lchamdagи axborotlar kiritiladi (Masalan, hujjat to`g`risidagi annotatsiya).

6.5 Ma`lumotnama – avtomatlashtirilgan kutubxona axborot tizimlari EK bazasini to`ldirishda avvaldan tayyorlab qo`yilgan ma`lumotnomalardan (masalan, nashr tili, mamlakatlar nomlari va boshq.) foydalanish katta samara beradi. Bu turdagи maydonlar qidirish jarayonida ham ishlatiladi, Adabiyotlarni qidirishda ma`lumotnama tipli maydonlar ham ishlatiladi.

Ma`lumotnama tipiga ega bo`lgan maydonlar uchun yana bir parametr kiritilishi kerak, ya`ni ma`lumotnomanig turi qanday? Ma`lumotnama turlari “Administrator”ning AIO`dan boshqariladi (yangi ma`lumotnomalar yaratiladi, tahrirlanadi, o`chiriladi) va “Kataloglashtiruvchining” AIO`da ularning elementlari to`ldiriladi. Bunday tipdagi ma`lumotnomalar statik tipdagi ma`lumotnomalar deb yuritiladi, ya`ni kataloglashtirish jarayonida mazkur ma`lumotnomalar tarkibi o`zgarmaydi. Ma`lumotnomaga zarur hollarda kerakli elementlar qo`sish mumkin. Hozirda KARMAT tizimida “Tillar”, “Mamlakatlar nomlari” va boshqa bir qator ma`lumotnomalar mavjud.

6.6 Satr ma`lumotnama – bunday tipdagi maydonlar qiymatlari asosida lug`atlar tashkil kilinadi. KARMAT-ITA tizimidagi asosiy qidirish funksiyalari xam **Satr ma`lumotnama** asosiga qurilgan. Ma`lumotnomalar tipli maydonlardan farqli ravishda satr ma`lumotnomalar turlari qat`iy o`rnatilgan va hech bir AIO`da ularni boshqarish imkoniyati yo`q. Bundan tashqari adabiyot kiritilgani sari ularning elementlar soni orta boradi. KARMAT tizimida quyidagi satr ma`lumotnomalar mavjud:

Odatda Satr ma`lumotnomalari “dinamik ma`lumotlar bazalarini” shakllantirishda foydalaniladi. KARMAT-ITA tizimidagi “Mualliflar”, “KBK indekslari”, “Ochqich so`zlar”, “Sarlavha”, “Nashr etilgan yil” va boshqa bir qator

MB dinamik ma`lumotlar bazalari hisoblanadi. Dinamik ma`lumotlar bazasini yaratish bevosita “Administrator” AIO`da amalga oshirish imkoniyati yaratilmagan. Dinamik MB yaratish uchun dastur tuzuvchisi tomonidan ba`zi bir operatsiyalar bajarilishi kerak.

6.7 To`plam – bu turdagи maydonlar bir xil MARS maydon raqamiga ega bo`lgan maydonlarni to`plash uchun ishlatiladi. Shu tufayli bunday maydonlarda maydon osti raqami bo`lmaydi. Masalan: sizda 100^A, 100^B, 100^D kabi maydonlar mavjud. Agar siz 100 raqamli to`plam tipga bo`lgan maydon kirlitsangiz, kataloglashtirish jarayonida yuqoridagi maydonlar 100 to`plam maydoni ostida chiqadi, bu esa MARS maydonlarni guruhlashda juda qo`l keladi. Maydon va maydonostilarni jamlash uchun “to`plam” xossasidan foydalaniladi.

6.8 Fayl xujjat – bibliografik to`liq matnni bog`lash uchun ishlatiladigan maydon. To`liq matn bog`lanadigan joyni ko`rsatuvchi maydon.

6.9 Tiplashmagan maydon - tipi USMARC xalqaro formatidagi 007 va 008 maydonlarni tavsiflash uchun kiritilgan. Bu maydonlarning boshqa MARS maydonlardan farqi shundaki, ularda maydonosti elementlari mavjud emas va maydon elementlari qiymatlari esa joylashish o`rni bo`yicha aniqlanadi.

Masalan, 008 maydonning 0-5 pozitsiyasida BYOni kiritilgan sanasi saqlanadi, 6 pozitsiyasida esa nashr maqomi (statusi) saqlanadi. Bundan ko`rinadiki, bizga nashr maqomi kerak bo`lsa, 008 maydonning 7-pozitsiyasida turgan simvolga qaraymiz.

7. “Kiritish majburiymi” – maydoniga “Ha” yoki “Yo`q” qiymatlaridan biri kiritilishi kerak. Hujjatning bibliografik tavsif elementi EK MBga kiritilishi majburiy bo`lgan hollarda maydonga “Ha” qiymati beriladi, Masalan, kitob sarlavhasi kiritilishi majburiy element hisoblanadi. Kitob nashr qilingan bosmaxona nomi kiritilishi majburiy bo`lмаган element hisoblanadi.
8. “Export/Import” – maydoniga “Ha” yoki “Yo`q” qiymatlaridan biri kiritilishi kerak. Maydon “Ha” qiymati qabul qilganda, maydonga kiritilgan ma`lumot bibliografik yozuvning (BYO) elementi sifatida eksport/import qilinishi mumkin. Maydonga “Yo`q” qiymati berilganda mazkur maydonga kiritilgan ma`lumot BYOning elementi sifatida eksport/import qilinmaydi.
9. “Yordamchi so`z” (o`zb|rus) - maydoniga kiritiladigan ma`lumot, maydonga qanday ma`lumot qay tarzda kiritilishi to`g`risida “kataloglashtiruvchiga” yordam sifatida kiritiladi.

Hujjat “Bibliografik yozuvning asosiy sarlavhasi – shaxs nomi” maydonini yuqorida keltirilgan tartib asosida yaratishni ko`rib chiqaylik. Buning uchun “Administratorning” AIO`ga tegishli Login va Parolni berish orqali kiramiz. EK MB maydonlarini yaratish uchun “Maydonlar” tugmasini bosamiz va yangi maydon yaratish imkoniyatiga ega bo`lgan sahifaga o`tamiz (2-rasm). Bu sahifadagi “Yangi maydon qo`shish” tugmasini bosish orqali tizimning “Konstruktori”ga o`tamiz va bu yerda bizga kerak bo`lgan xossalarga ega bo`lgan maydonni yaratamiz (4-rasm). Bu yerda hujjat muallifiga bog`liq yana 5 ta ma`lumot (muallifning familiyasi, ismi, sharifi, avlodlar nomeri, tituli (unvoni), sana, to`liq ismi sharifi) kiritiladi. Shunday qilib, 100-maydon “Bibliografik yozuv asosiy sarlavhasi – shaxs nomi”ga 5 ta ma`lumot to`plam sifatida 100A, 100G,

100S, 100D, 100F bog`lanadi. Tegishli maydonlar yuqorida ko`rib o`tilgandek to`ldirilsa va “Tahrirlash” tugmasi bosilsa AKAT EK MB bibliografik tavsifning “Bibliografik yozuv asosiy sarlavhasi – shaxs nomi” yoki boshqacha aytganda hujjat muallifi to`g`risidagi ma`lumotlarni kiritishga mo`ljallangan maydon yaratiladi. Mazkur maydon 5 marotaba takrorlanadi. Yuqoridagi amallarni ketma-ket bajarib, sarlavha, bilimlar sohasi, fanlar, annotatsiya, nashr tili, chiqish ma`lumotlari (nashr etilgan joy, nashriyot nomi va nashr etilgan yil), ochqich so`zlar, KBK indekslari va fizik tavsif uchun maydonlarni yaratishimiz mumkin (5-7 rasmlar).

Maydonni tahrirlash		
Maydon	245	A Marc 21
		Unimarc
Tartib	0	
Nomi(uzb)	Сарлавча	
Nomi(rus)	Заглавие	
Takrorlanish soni	5	
Maydon tipi	To`plam	
Kiritish majburiymi	<input type="radio"/> Ha	<input checked="" type="radio"/> Yo`q
Export/Import	<input checked="" type="radio"/> Ha	<input type="radio"/> Yo`q
Yordamchi so`z(uz)	САРЛАВЧА Метка: Сарлавча Таъриф: Рақамли ресурс яратувчиси ёки унинг ношири томонидан берилган ном. ЗАГЛАВИЕ	

4-rasm

Boshqaruvchi

admin Chiqish »

Menyu

Sozlash

- Maydonlar
- Kiritish shakllari
- Qidirish shakllari
- Ma'lumotlar bo'limi
- Ma'lumotlar bazasi
- Foydalanuvchilar
- Qidirish
- Kengaytirilgan qidirish

Maydonni tahrirlash

Maydon	245	A	B	Marc 21
		A		Unimarc
Tartib	1			
Nomi(uzb)	Сарлавҳа... ани маълумот			
Nomi(rus)	Сведения о заглавие			
Takrorlanish soni	3			
Maydon tipi	Ma'lumotnomma			
	Сарлавҳага тегишили маълумо			
Kiritish majburiyimi	<input type="radio"/> Ha <input checked="" type="radio"/> Yo'q			
Export/Import	<input checked="" type="radio"/> Ha <input type="radio"/> Yo'q			
Yordamchi so'z(uz)	Майдонга сарлавҳага тегишили маълумот лугатдан фойдаланиб киритилади.			

5-rasm

Boshqaruvchi

admin Chiqish »

Menyu

Sozlash

- Maydonlar
- Kiritish shakllari
- Qidirish shakllari
- Ma'lumotlar bo'limi
- Ma'lumotlar bazasi
- Foydalanuvchilar
- Qidirish
- Kengaytirilgan qidirish

Maydonni tahrirlash

Maydon	019	A	D	Marc 21
		A		Unimarc
Tartib	2			
Nomi(uzb)	Очиқ сўзлар			
Nomi(rus)	Ключевые слова			
Takrorlanish soni	5			
Maydon tipi	Satr Ma'lumotnomma			
	Kalit so'zlar			
Kiritish majburiyimi	<input type="radio"/> Ha <input checked="" type="radio"/> Yo'q			
Export/Import	<input checked="" type="radio"/> Ha <input type="radio"/> Yo'q			
Yordamchi so'z(uz)				

6-rasm

Boshqaruvchi

admin Chiqish »

Menyu

Sozlash

- Maydonlar
- Kiritish shakllari
- Qidirish shakllari
- Ma'lumotlar bo'limi
- Ma'lumotlar bazasi
- Foydalanuvchilar
- Qidirish
- Kengaytirilgan qidirish

Maydonni tahrirlash

Maydon	019	A	Marc 21
			Unimarc
Tartib	2		
Nomi(uzb)	УДК		
Nomi(rus)	УДК		
Takrorlanish soni	5		
Maydon tipi	Satr Ma'lumotnoma		
	UDK indeksi		
Kiritish majburiymi	<input type="radio"/> Ha <input checked="" type="radio"/> Yo'q		
Export/Import	<input type="radio"/> Ha <input checked="" type="radio"/> Yo'q		
Yordamchi so'z(uz)	Майдонга ўнли универсал классификация жадвалининг индекси киритилади.		

7-rasm

Shunday qilib, elektron katalog ma'lumotlar bazasini shakllantirishda foydalaniladigan maydonlar xalqaro MARC formatlar talablari asosida shakllantirilishi lozim.

1.4. Elektron resurslar yaratish va foydalanishning huquqiy jihatlari

O`zbekistonda hozirgi kunda elektron kutubxonalar yaratish va kutubxona ish jarayonlarini avtomatlashtirish bilan bog`liq axborot sohasi jadal sur`atlar bilan rivojlanmoqda. Axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, elektron shaklda axborotlarni ko`paytirish va tarqatish arzonligi va oddiyligi insonning intellektual mehnati mahsuli bo`lgan ijodiy asarlarni yaratish uchun katta imkoniyatlarni yaratish bilan birga, raqamli shaklda ifoda etilgan intellektual mulk ob`ektlaridan foydalanuvchilar hamda muallif huquqi manfaatlari o`rtasida nizolar keltirib chiqardi.

Ko`pchilik axborot resurs markazlari (ARM) va axborot kutubxona markazlari (AKM) elektron kataloglar, to`la matnli ma`lumotlar bazalari, hamda mul`timedia ko`rinishidagi o`z elektron resurslarini yaratmoqdalar. Maqolalar, jurnallar, kitoblar, darsliklar va boshqa asarlardan foydalanishda ko`pincha mualliflik huquqi bilan bog`liq muammolar yuzaga keladi. Muallif uning asari elektron shaklda bo`lishini, erkin foydalanish uchun Internetda yoki ochiq foydalanish yoki sotish uchun lokal tarmoqda taqdim etilishiga rozi bo`larmikan? O`qituvchi o`zining ma`ruzalarini universitet yoki mакtab elektron kutubxonasiiga taqdim etishni xohlaydimi? O`zimizning elektron darsliklarimiz, maqolalarimiz, to`plamlarimiz va shu kabilarga chet ellik mualliflarning asarlarini ularning yoki nashr etuvchining roziligidan kiritishimiz to`g`rimikan? Ushbu muammo faqatgina elektron resurslarni yaratish bo`yicha ishlari endi boshlanayotgan mamlakatlardagina paydo bo`lmaydi. Chet el nashrlari, OAVlarida, rivojlangan mamlakatlarda mualliflik huquqini himoya qilish masalalari bilan bog`liq sud jarayonlari to`g`risidagi maqolalar tez-tez uchrab turibdi. Global axborot muhitida o`zlarining mualliflik huquqlarini himoya qilayotgan mualliflar ko`payib bormoqda. Asarlarni elektron ko`rinishda taqdim etishning o`ziga xosligi, Internet va axborotlarni tezkor tarqatish uchun telekommunikatsiyalar va boshqa vositalarning katta imkoniyatlari darslik, maqola, jurnal bo`lsin, asar yaratuvchisining mualliflik huquqini himoya qilish kabi muammoni keltirib chiqardi.

Shuning uchun asar mualliflari qanchalik himoyalanganliklari ARM va elektron rusurslar yaratuvchi boshqa tashkilotlar ham ushbu asarlardan foydalanishga haqlimi? Respublikada qanday qonunlar va hukumat qarorlari mana shu dolzarb mavzuni hal etishga yo`naltirilganligi kabi muhim jihatlarini puxta o`rganib chiqish kerak.

Elektron fondlar egalari bo`lmish ARM, AKM va kutubxonalarda mualliflik huquqi masalalari kun tartibiga chiqmoqda.

“Mualliflik huquqi” (MH) tushunchasining o`zi XVIII asrning boshidayoq paydo bo`lgan. Ushbu huquqning asosiy maqsadi – insonning intellektual faoliyatini himoya qilish va taqdirlash hisoblanadi.

MH termini ikki xil mazmunga ega:

- O`zining ishini takrorlash yoki ommaviy taqdim etish mumkinligi to`g`risidagi qarorni qabul qilish – muallifning shaxsiy huquqi;
- Muallif huquqlarini himoya qilish yuridik tizimi, moddiy-huquqiy tizimning bir qismi.

MH asarlarga o`zining umumiy qattiq talablarini qo`yadi:

- Muallif o`z ishiga – ma`naviy huquqiga ega;
- Hech kim muallifning ruxsatisiz uni o`zgartirishi yoki muallifning familiyasini ko`rsatmasdan foydalanish huquqiga ega emas;
- Muallif bajargan ishi uchun mukofot olish huquqiga ham ega;
- Prodyuser/nashriyotchi ham ko`pchilik hollarda qo`shtan hissasi uchun mukofot olishi kerak.

Barcha holatlarda ham ushbu qattiq talablar qo`yiladimi? Har doim ham mualliflik huquqining qattiq talablariga amal qilish zarurmi? Agar shu masalarni chuqurroq tahlil qilib chiqilsa, umumiy qattiq qoidalardan qator chetlanishlarni ko`rsatish mumkin. Bu asosan MH uchun ma`lum chegirmalar nima maqsadda berilishiga taalluqlidir: Ta`lim maqsadlaridami? Madaniyatni rivojlantirish maqsadlaridami? Ijtimoiy maqsadlardami?

Kutubxona – bu axborot resurslaridan foydalanish faolligi eng ko`p kuzatiladigan soha bo`lganligi uchun aynan kutubxona xodimlari qandaydir alohida shartlarni hisobga olib axborot resurslardan foydalanish cheklanishlari hamda imkoniyatlari doirasini o`rganishlari zarur. Kutubxonalar endi nafaqat kitob va kassetalar kabi fizik ob`ektlarga ega bo`lish, balki Internet tarmog`idan va boshqa raqamli axborot resurslar (elektron jurnallar, ma`lumot bazalari va shu kabilalar)dan erkin foydalanish huquqiga ega bo`lmoqdalar.

Kutubxonachilarda yangi tashvishlar va vazifalar paydo bo`lmoqda:

Elektron resurslardan foydalanish tartibi to`g`risida litsenziyalı kelishuvlarni tuzish. Ular kutubxona fondining bir qismi sifatida tarmoq hujjalarni tanlab olish, baholash va solishtirishni o`rganib olishlari kerak.

Shartnoma va shartnoma huquqini o`qish uchun qo`shimcha bilim va ko`nikmalar olishlari hamda muzokaralar olib borish ko`nikmalarini egallashlari kerak. MHga amal qilish ilmiy, ilmiy-ommabop, badiiy va boshqa asarlarni rag`batlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. O`z asarlarini kutubxonalarda e`lon qilish va taqdim etishga ijodiy shaxslarni jalb qilish uchun samarali rag`batlantirish mexanizmlarini topish zarur. Rivojlangan chet davlatlarda tadqiqot mualliflari kutubxonalarda erkin foydalanishlari uchun o`z asarlarini kutubxonaga taqdim eta olishlari muhim sabablardan biri – bu muallifning maqolalari yoki kitobidan foydalanish sonini ortishini ko`rsatadi. Mana shuning hisobiga uning asarlariga o`quvchilarning qiziqishlari va talab darajasi o`sadi.

Ammo har qanday holatda ham kutubxona muallif bilan litsenziyalı kelishuv tuzishi kerak. Kelishuv tuzishda qat`iy standartlar mavjud emas, ammo muallif bilan imzolanishida amal qilinishi kerak bo`lgan jihatlari bor. Bular nimalardan iborat?

Odatda litsenziyalı kelishuvlarda quyidagi tushunchalarga oid moddalar bo`ladi:

- Kelishuv tomoni;
- Deklarativ qismi;
- Kelishuv izohlari;
- Aniqlik kiritish;

- Qonunni tanlash;
- Sharhnomaning asosiy qismi;
- Ushbu litsenziya tomonidan beriladigan huquq;
- Qo`llash cheklanishlari ;
- Amal qilish muddati va faoliyatni to`xtatish sanasi;
- Yetkazib berish usuli va litsenziyalashtirilgan materiallardan foydalanish;
- Litsenzion to`lov;
- Litsenziya egasining (kutubxonaning) harakatlari;
- Bajarish va baholash kafolatlari, majburiyatlar, zararni o`rnini to`ldirish;
- Fors-major;
- Huquqini sotish (berish);
- Xabardor qilish;
- Kelishmovchiliklarni hal qilish;
- Qo`shimcha hujjatlar;
- Imzolar.

Dunyoning ko`pchilik mamlakatlarida bo`lgani kabi O`zbekistonda mualliflik huquqlari «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to`g`risida»gi (21.07.2006 yil) Qonun bilan belgilanadi. Afsuski elektron nashrlar bilan bog`liq punktlarni hisobga olish mumkin bo`lgan moddalar yoki alohida qonun hali yo`q, ammo hozirgi paytda asarlardan kutubxonalarda foydalanishda MHni himoya qilish uchun ushbu Qonunning qator moddalaridan foydalanishimiz mumkin. Elektron resurslardan nusxa olish, shakllantirish va yozma hamda elektron versiyalarni tarqatishda kutubxonalar amal qilishlari mumkin bo`lgan Qonunning eng muhim moddalarini ko`rib chiqamiz.

4-moddaga binoan «MH quyidagilarga taalluqli: O`zbekiston Respublikasi fuqarolari hisoblangan yoki O`zbekiston Respublikasida doimiy turar joyga ega bo`lgan mualliflar asarlari yoki boshqa MH dastlabki egalariga; mualliflarning fuqaroligi va doimiy turar joyidan qat`iy nazar birinchi bor O`zbekiston Respublikasida e`lon qilingan asarlarga; O`zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga binoan O`zbekiston Respublikasida qo`riqlanadigan asarlarga».

5-moddaga binoan Mualliflik huquqi (MH) adabiyot asarlariha ham taallluqli. Elektron resurslarni, elektron ma`lumotlar bazalarini, elektron kutubxonalarni yaratishda kimningdir asaridan foydalanadigan bo`lsak ushbu moddaga amal qilishimiz kerak bo`ladi.

MH biror bir ob`ektiv shaklda bo`lgan, e`lon qilingan hamda e`lon qilinmagan asarlarga ham taalluqli: yozma (qo`lyozma, mashinada terilgan, nota yozuvi va shu kabi); ovozli yoki video (mexanik, magnitli, raqamli, optik va shu kabi); tasvir (rasm, eskiz, kartina, plan, chizma, kino-, tele-, video- yoki fotokadr va shu kabi); boshqa formatlarda.

6-moddaga binoan quyidagilar mualliflik huquqi hisoblanadi:

- adabiy asarlar (adabiy-badiiy, ilmiy, o`quv, publisistik va boshq.);
- drama va stsenariy asarlari;

- matnli yoki matnsiz musiqa asarlari;
- musiqali drama asarlari;
- audiovizual asarlar;
- fotosurat asarlari va fotosuratga o`xshash usul bilan olingen asarlar;
- geografiya, geologik va boshqa xaritalar, planlar, eskizlar va geografiyaga, topografiya hamda boshqa fanlarga oid asarlar.

Shundan kelib chiqqan holda agard darsliklar, ilmiy maqolalar, kitoblar va boshqalarni raqamli turiga aylantirmoqchi bo`lsangiz ushbu asarlardan ixtiyoriy foydalanish, ko`paytirish bo`yicha Qonun qo`yadigan cheklanishlarni hisobga olishga majbursiz.

7-moddaga binoan asarlarning bir qismi, asarning hosilasi va tarkibiy qismlari ham mualliflik huquqi ob`ektlari hisoblanishini esda tutish zarur. Bunga quyidagilar kiradi: mustaqil foydalanishi mumkin bo`lgan asarning bir qismi (shu jumladan uning nomi); asarning hosilalari (tarjimalar, ishlanma asarlar, annotatsiyalar, referatlar, muxtasar xulosalar, sharhlar, instsenirovkalar, aranjirovkalar, soddalashtirishlar hamda fan, adabiyot va san`at asarlarining boshqa qayta ishlanmalari); to`plamlar (entsiklopediyalar, antologiyalar, ma`lumotlar bazalari) va materiallarning tanlab olinishi yoki joylashtirilganligiga ko`ra ijodiy mehnat natijasi bo`lgan boshqa jamlama asarlar mualliflik huquqi ob`ektlari hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, elektron to`liq matnli ma`lumotlar bazasini va mel`timediali ma`lumotlar bazasini yaratishda kimning asarlaridan, qay darajada (to`laligicha yoki qisman, matnli yoki mul`timediali shaklda) foydalanayotganligini hisobga olish kerak.

Rasmiy hujjat (qonunlar, qarorlar va shu kabi)lar hamda ularning tarjimalari; rasmiy belgilar va ramzlar (bayroqlar, gerblar, ordenlar, pul belgilari va shu kabilar); odatiy ommaviy axborot xususiyatiga ega kun yangiliklari to`g`risidagi yoki kundalik hodisalar to`g`risidagi xabarlar MH ob`ektlari hisoblanmaydi. Ushbu hujjatlar agar matbuotda e`lon qilingan yoki jamoatchilik xabardor bo`lsa hech bir maxsus ruxsatlarsiz va kelishuvlarsiz elektron ma`lumotlar bazasiga kiritilishi mumkin.

Kim asarning muallifi hisoblanadi? Mualliflik huquqining barcha qoidalariiga amal qilish uchun kimga murojaat etish kerak? Asarning asl nusxasi yoki nusxasida muallif sifatida ko`rsatilgan shaxs muallif hisoblanadi (10-modda).

Asar imzosiz yoki taxallus ostida chop etilgan taqdirda (muallifning taxallusi uning kim ekanligiga shubha qoldirmaydigan hollar bundan mustasno), asarni chop etgan, asarda ismi-sharifi yoki nomi ko`rsatilgan noshir, agar boshqa dalillar bo`lmasa, muallifning vakili hisoblanadi, hamda muallifning huquqlarini himoya qilish va ularning amalga oshirilishini ta`minlash huquqiga egadir. Bu qoida bunday asar muallifi o`z shaxsini oshkor etguniga va o`zining muallif ekanligini ma`lum qilguniga qadar amalda bo`ladi.

Ammo asar bir necha mualliflar tomonidan yozilgan bo`lishi mumkin. Hamkorlikdagi asarga MH shunday asar ajralmas yaxlitni tashkil qiladimi yoki har biri mustaqil ahamiyatga ega qismlardan tashkil topadimi, bundan qat`iy nazar

hamkorlikda hammualliflarga tegishli bo`ladi. Shu bilan bir vaqtda mualliflar o`rtasida qandaydir rasmiy kelishuvlar bo`lmasa hammualliflardan har biri mustaqil ahamiyatga ega bo`lgan o`zi yaratgan asarning bir qismidan foydalanish huquqiga ega (12-modda).

Ko`pincha qandaydir asarlar qayta ishlanadi. Bu holat odatda ilmiy asarlar, kitoblar bilan kuzatiladi. Ularning asoslarida boshqa mualliflar to`ldirishlar va qo`shimchalar bilan o`z asarlarini yaratadilar. Ya`ni umuman olganda yangi asar paydo bo`ladi. Agar yaratilayotgan elektron resursda boshqa mualliflarning asarlaridan foydalanilgan bo`lsa mohiyati bo`yicha asarning hosilasi hisoblanadi. Asar hosilasi muallifiga u qayta ishlagan adabiyot va san`at asariga MH tegishli bo`ladi (13-modda). Hosila asarning muallifi qayta ishlangan asarning muallifi huquqlariga amal qilish sharti bilan o`zi yaratgan asarga MH dan foydalanadi. Bular dastlabki muallifga ilova yoki qandaydir kelishuvlar bo`lishi kerak. Hosila asarning muallifi MH qayta ishlashga asos bo`lgan asarni boshqa shaxslar tomonidan qayta ishlashlariga to`siq bo`lmaydi.

Muallif asardan har qanday shaklda va har qanday usul bilan foydalanish huquqiga ega (19-modda). Ya`ni o`z asarlarini raqamlashtirishga, ma`lumotlar bazasida saqlashga, Internet orqali tarqatish uchun berish yoki bermasligini o`zi hal qilish huquqiga ega.

Asardan foydalanishga muallifning favqulotda huquqi quyidagi harakatlarni amalga oshirish yoki ruxsat berish huquqini anglatadi:

- asarning asl nusxasini yoki nusxalarini sotish yoki boshqa xususiyilik huquqini (tarqatish huquqini) berish bilan tarqatish. Masalan: muallif asarning raqamlashtirilgan versiyasi ushbu kutubxonaning lokal ma`lumotlar bazasida saqlanishi mumkinligi sharti bilan o`z asarini kutubxonaga berishi mumkin;
- asarni o`zgartirish, bezash yoki boshqa usul bilan qayta ishslash (qayta ishslash huquqi);
- muallif asaridan har bir foydalanish turi uchun mukofot olish huquqiga ega (mukofot olish huquqi).

Asardan daromad olish maqsadida foydalanilganmi yoki undan foydalanishda buni ko`zlanmaganmi bundan qat`iy nazar u foydalanilgan hisoblanadi. O`z o`quvchilariga bepul taqdim etish uchun asarni raqamlashtirgan, ammo buni muallif bilan kelishmagan kutubxonalar, ARMlar ham MHni buzgan hisoblanadilar.

«Qaysi asarlardan muallifning ruxsatisiz foydalanish mumkin?», «Muallif olamdan o`tgan bo`lsa nima qilish kerak?», «Qadimiylar qo`lyozmalar, nodir asarlarni nima qilish mumkin?», «Ular kimning mulki?», «Ularni ortiqcha qog`ozbozliksiz raqamlashtirish mumkinmi?» degan savollar juda muhim.

Asar muallifining yoki boshqa huquq egasi rozilgisiz va mukofot to`lamasdan kutubxonalar erkin foydalaniladigan asarlar nusxalarini vaqtinchalik foydalanishga taqdim etishlari mumkin. Bunda mualliflik huquqi ob`ektlari bo`lgan, raqamli shaklda ifodalangan asarlarning nusxalari, shu jumladan kutubxona resurslaridan o`zaro foydalanish tartibida beriladigan asarlarning nusxalari, bu asarlarning raqamli shakldagi ko`chirma nusxalarini yaratish

imkoniyatini istisno etish sharti bilan faqat kutubxonalarining binolarida vaqtinchalik foydalanishga berilishi mumkin (26-modda).

Asardan foydalanishda muallifning ism-sharifini va olingan manbaani ko`rsatgan holda, hamda asardan normal foydalanishiga zarar yetkazmasdan va muallifning qonuniy manfaatlariga putur yetkazmaslik sharti bilan quyidagi tarzda erkin foydalanishga yo`l qo`yiladi:

- daromad olishni ko`zlamagan holda, muallifning yoki boshqa huquq egasining roziligesiz va haq to`lamagan holda, lekin asaridan foydalanilayotgan muallifning ism-sharifini va olingan manbaani albatta ko`rsatgan holda bir nusxada reprografik takrorlashga yo`l qo`yiladi (27-modda);

- kutubxonalar va arxivlar tomonidan asarning yo`qolgan yoki yaroqsiz bo`lib qolgan nusxalarini tiklash, almashtirish uchun, shuningdek o`z fondlaridan bu asarlarni biron sabab bilan yo`qotgan boshqa kutubxonalar va arxivlarga asarlarning nusxalarini berish uchun chop etilgan asarni;

- kutubxonalar va arxivlar tomonidan fuqarolarning o`quv va tadqiqot maqsadlaridagi so`rovlari bo`yicha, shuningdek ta`lim muassasalari tomonidan auditoriya mashg`ulotlari uchun to`plamlarda, gazetalar va boshqa davriy nashrlarda chop etilgan ayrim maqolalar va kichik hajmli asarlarni, chop etilgan yozma asarlardan (suratli yoki suratsiz) qisqa parchalarni bir nusxada kutubxona o`z o`quvchilari uchun mana shunday ixtisoslashtirilgan elektron kutubxonalarini yaratishi mumkin.

Qonun dasturli mahsulotlar va ma`lumotlar bazalari egalari va foydalanishga MHni ham qamrab oladi. EHM uchun dasturning yoki ma`lumotlar bazasining nusxasiga qonuniy ega bo`lgan shaxsnинг keyinchalik shaxsiy foydalanish maqsadida EHM uchun dasturni yoki ma`lumotlar bazasini erkin takrorlashga va soddallashtirishga bo`lgan huquqi qonun bilan belgilanadi (32-modda).

Mualliflik huquqi muallifning butun hayoti davomida va uning vafotidan keyin ellik yil davomida amal qiladi (35-modda). Hammualliflikda yaratilgan asarga bo`lgan mualliflik huquqi hammualliflarning butun hayoti davomida va hammualliflar orasida eng uzoq umr ko`rgan oxirgi shaxs vafot etganidan keyin ellik yil davomida amal qiladi. Agar asarning muallifi va hammualliflar ellik yil ilgari vafot etgan bo`salar kutubxona hech bir maxsus ruxsatlarsiz elektron resurslar yaratishi va ularni lokal tarmoqda, Internetda hamda sotish uchun taqdim etishi mumkin.

Muallifning vafotidan keyin birinchi marta e`lon qilingan asarga bo`lgan mualliflik huquqi asar e`lon qilinganidan keyin ellik yil davomida amal qiladi. Ya`ni kutubxonada saqlanadigan qadimiy qo`lyozmalar qo`shimcha ruxsatlarsiz raqamlashtirilishi mumkin.

Muallifning mulkiy huquqlari meros bo`yicha o`tadi (36-modda).

Muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlari meros bo`yicha o`tmaydi. Muallifning merosxo`rlari ko`rsatilgan huquqlarni himoya qilishga haqlidir. Merosxo`rlarning ushbu huquqlari muddat bilan cheklanmaydi. Asarlarga bo`lgan mualliflik huquqining amal qilish muddatining tugashi ularning ijtimoiy mulkka aylanishini bildiradi (37-modda).

Mulkiy huquqlar faqat mualliflik shartnomasini tuzish yo`li bilan huquq egasi tomonidan boshqa shaxsga o`tkazilishi mumkin (38-modda).

Muallifning mulkiy huquqlarini boshqa shaxsga o`tkazish mutlaq huquqlarni boshqa shaxsga o`tkazish to`g`risidagi mualliflik shartnomasi asosida yoki mutlaq bo`lmagan huquqlarni boshqa shaxsga o`tkazish to`g`risidagi mualliflik shartnomasi asosida amalga oshirilishi mumkin.

Mualliflik shartnomasi (yoki litsenziya kelishuvi)da quyidagilar nazarda tutilishi kerak:

- asardan foydalanish usullari (mazkur shartnoma asosida o`tkaziladigan konkret huquqlar);
- asardan foydalanishning har bir usuli uchun to`lanadigan haq miqdori va (yoki) to`lanadigan haq miqdorini belgilash tartibi, uni to`lash tartibi hamda muddatlari (39-modda).

Misol uchun muallif o`z asarining elektron shaklidan faqatgina ushbu kutubxona doirasi (kompyuterli o`quv zali)da va uning o`quvchilari uchun nusxa olish huquqisiz foydalanishga ruxsat berishi mumkin. U elektron versiyani sotishda foizlarni talab qilishi yoki hech qanday cheklanishlarsiz kutubxonaga undan foydalanish to`la erkinligini berishi mumkin. Mualliflik shartnomasida asardan foydalanish huquqi qancha muddatga o`tkazilishi to`g`risida shart bo`lmagan taqdirda, shartnoma tuzilgan sanadan boshlab besh yil o`tganidan keyin, agar foydalanuvchi shartnoma bekor qilinguniga qadar kamida olti oy oldin bu haqda yozma ravishda ogohlantirilgan bo`lsa, shartnoma muallif tomonidan bekor qilinishi mumkin.

Mualliflik shartnomasida asardan foydalanish huquqi amal qiladigan hudud doirasi to`g`risida shart bo`lmagan taqdirda, shartnomaga binoan boshqa shaxsga o`tkazilayotgan huquqning amal qilishi O`zbekiston Respublikasi hududi bilan cheklanadi. Boshqa shaxsga o`tkazilishi mualliflik shartnomasida bevosita nazarda tutilmagan asardan foydalanish huquqlari boshqa shaxsga o`tkazilmagan deb hisoblanadi.

To`lanadigan haq mualliflik shartnomasida asardan foydalanishning tegishli usuli uchun olinadigan daromaddan foiz tarzida belgilanadi yoki agar buni asarning xususiyati yoki undan foydalanishning o`ziga xos jihatlari bilan bog`liq holda amalga oshirish mumkin bo`lmasa, shartnomada qayd etilgan summa tarzida yoxud boshqacha tarzda belgilanadi.

Shartnomada masalan asarni on-layn foydalanishda pullik taqdim etilganda foydaning ma`lum qismini to`lash kabi mukofot turi ko`zda tutilishi mumkin. Bunday holatlarda manbaga necha bor murojaat etilganligi, asardan necha bor nusxa olinganligi qat`iy tarzda qayd etilishi kerak.

Asar mualliflari, ijrochilari yoki boshqa huquq egalari o`z mulkiy huquqlarini amalga oshirish maqsadida o`z mulkiy huquqlarini jamoaviy asosda boshqaradigan tashkilotlar tuzishga haqlidirlar (56-60-moddalar).

Kutubxona konsortsiumi shunday tashkilot bo`lishi mumkin. Konsortsium, notijorat tashkilot sifatida muallif bilan asarning elektron shaklidan va kutubxona – konsortsium a`zolari doirasida foydalanishga eksklyuziv huquqga shartnoma tuzishi mumkin. Bu holat konsortsiumga birlashgan kutubxonalarga har biri

alohida shartnoma tuzgan holatlarga qaraganda mablag`ni ancha tejasgiga, muallifga esa munosib mukofot olishiga imkon beradi. Konsortsium kutubxonalarini kutubxonalaridan biriga mualliflar bilan muzokaralar olib borish va konsortsium nomidan shartnomalar imzolash vakolatini berishlari mumkin.

Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarning faoliyatiga nisbatan monopoliyaga qarshi qaratilgan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan cheklashlar qo`llanilmaydi.

Konsortsium o`zi qaysi huquq egalarining nomidan ish ko`rayotgan bo`lsa, shu huquq egalarining nomidan va ulardan olingan vakolatlar asosida quyidagi huquqlarga ega bo`ladi (58-Modda):

- mukofot miqdorini va shartnomalarining tuzilishiga doir boshqa shartlarni foydalanuvchilar bilan kelishib olish;
- konsortsium boshqarayotgan huquqlardan foydalanish uchun foydalanuvchilar bilan shartnomalar tuzish;
- tashkilot to`lanadigan haqni yig`ish bilan ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollarda shartnoma tuzmasdan shug`ullangan taqdirda, bunday haq miqdorini foydalanuvchilar bilan kelishib olish;
- shartnomalarda nazarda tutilgan haqni yig`ish, taqsimlash va to`lash;
- bunday tashkilot o`zi boshqarayotgan huquqlarni himoya qilish uchun zarur bo`ladigan har qanday yuridik harakatlarni bajarish;
- shunday tashkilot tomonidan belgilangan tartibda asarlarni va (yoki) turdosh huquqlar ob`ektlarini, shuningdek asarlarga va (yoki) turdosh huquqlar ob`ektlariga bo`lgan huquqlarni boshqa shaxsga o`tkazish to`g`risidagi shartnomalarni ro`yxatga olishni va (yoki) saqlashga topshirishni amalga oshirish.

Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot huquq egalari bilan tuzilgan shartnomalar asosida va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo`lishi mumkin (62-modda).

Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzish quyidagilar bo`lishi mumkin:

- mualliflarning shaxsiy nomulkiy huquqlarini buzish;
- ijrochining ism-sharifiga bo`lgan va ijroni har qanday tarzda buzib ko`rsatilishidan yoki har qanday boshqacha tarzda tajovuz qilinishidan himoya qilish huquqlarini buzish;
- huquq egasi yoki mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot bilan shartnoma tuzmasdan asarlar yoki turdosh huquqlar ob`ektini takrorlash, tarqatish yoki undan boshqacha tarzda foydalanish, ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollarda haq to`lash to`g`risidagi talablarni buzish;
- asarlardan yoki turdosh huquqlar ob`ektlaridan huquq egasi yoki mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot bilan tuzilgan shartnoma bo`yicha olingan huquqlarni oshirib yuborgan holda foydalanish;

- huquq egalarining mulkiy huquqlarini boshqacha tarzda buzish mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzishdir.

Asarlarning va turdosh huquqlar ob`ektlarining takrorlanishi yoki tarqatilishi mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzgan holda amalga oshiriladigan nusxalari kontrafakt nusxalardir. Ushbu Qonunga muvofiq muhofaza qilinadigan asarlarning va turdosh huquqlar ob`ektlarining bunday asarlarni va turdosh huquqlar ob`ektlarini muhofaza qilish to`xtatilgan yoki hech qachon muhofaza qilinmagan davlatlardan huquq egalarining roziligidisiz import qilinadigan nusxalari ham kontrafakt nusxalardir.

Elektron resurslarni yaratish va foydalanishda mualliflik huquqini himoya qilish bo`yicha muhim tomonlarini ko`rsatish mumkin.

1. An`anaviy va elektron ko`rinishda taqdim etilganda quyidagilar mualliflik huquqi ob`ektlari hisoblanadi:

- adabiy asarlar (adabiy-badiiy, ilmiy, o`quv, publitsistik va boshqa asarlar);
- drama va stsenariy asarları;
- matnli yoki matnsiz musiqa asarları;
- musiqali drama asarları;
- xoreografiya asarları va pantomimalar;
- audiovizual asarlar;
- rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, dizayn asarları va tasviriy san`atning boshqa asarları;
- manzarali-amaliy va sahna bezagi san`ati asarları;
- fotografiya asarları va fotografiyaga o`xshash usullarda yaratilgan asarlar;
- jo`g`rofiya, geologiya xaritalari va boshqa xaritalar, jo`g`rofiya, topografiya va boshqa fanlarga taalluqli tarhlar, eskizlar va asarlar;

2. Asarning asl nusxasida yoki nusxasida muallif sifatida ko`rsatilgan shaxs, agar boshqacha hol isbotlanmagan bo`lsa, asar muallifi hisoblanadi. Elektron to`la matnli ma`lumotlar bazasini va mul`timediali ma`lumotlar bazasini yaratishda kimning asarlaridan, qay darajada (to`laligicha yoki qisman, matnli yoki mul`timediali shaklda) foydalanayotganligimizni hisobga olish kerak.

3. Muallif asardan har qanday shaklda va har qanday usulda foydalanish mutlaq huquqiga ega. Muallif kutubxonaga o`z asarlarini raqamlashtirish, ma`lumotlar bazasida saqlash, Internet orqali tarqatish uchun ruxsat berishi yoki ruxsat bermasligi mumkin.

4. Muallif o`z asaridan elektron ko`rinishda foydalanganligi uchun mukofot olish huquqiga ega (mukofot olish huquqi). Ushbu huquq muallif va kutubxona o`rtasida maxsus kelishuv bilan belgilanadi.

5. Muallif roziligidisiz va mukofot to`lashsiz quyidagi hollarda ularning asarlarini elektron kutubxonaga kiritish mumkin:

- ellik yil ilgari vafot etgan mualliflarning asarlaridan kutubxona to`sqliarsiz foydalanishi mumkin;

- kutubxonada saqlanadigan qadimiy qo`lyozmalardan hech bir qo`shimcha ruxsatlarsiz raqamli ko`rinishga keltirilishi mumkin (27-modda). Shuningdek, daromad olishni ko`zlamagan holda, muallifning yoki boshqa huquq egasining roziligesiz va haq to`lamagan holda, lekin asaridan foydalanilayotgan muallifning ism-sharifini va albatta reprografik asar olingan manbani ko`rsatgan holda kutubxonalar va arxivlar tomonidan - asarning yo`qolgan yoki yaroqsiz bo`lib qolgan nusxalarini tiklash, almashtirish uchun, shuningdek o`z fondlaridan bu asarlarni biron sabab bilan yo`qotgan boshqa kutubxonalar va arxivlarga asarlarning nusxalarini berish uchun chop etilgan asarni;
- kutubxonalar va arxivlar tomonidan fuqarolarning o`quv va tadqiqot maqsadlaridagi so`rovlari bo`yicha, shuningdek, ta`lim muassasalari tomonidan auditoriya mashg`ulotlari uchun to`plamlarda, gazetalar va boshqa davriy nashrlarda chop etilgan ayrim maqolalar va kichik hajmli asarlarni, chop etilgan yozma asarlardan (suratlari yoki suratsiz) qisqa parchalarni bir nusxada takrorlashga yo`l qo`yiladi.

Shunday qilib, elektron resurslarni ARM, AKM va kutubxonalarda yaratish va ulardan foydalanishda mualliflik to`g`risidagi qonunlarga rioya qilish zarur.

2-BOB. DUBLIN YADROSI METAMA`LUMOTLARI ASOSIDA IKKI BOSQICHLI KATALOGLASHTIRSH USULI

2.1. Dublin yadrosining metama`lumotlar tizimi

Dublin yadrosining qisqa tarixi

Elektron resurslar tavsifini yaratish bo`yicha 1995 yilning mart oyida AQSHning Dublin shahrida bo`lib o`tgan birinchi seminar “Dublin yadrosining” asosiy elementlarini ishlab chiqdi. Seminar elektron hujjatlarni qidirish uchun taqdim qilishda semantika muammolarini yechishga bag`ishlangan edi.

Ikkinci seminar Angliyada (Uorvik) bo`lib o`tdi va unda birinchi seminarda erishilgan kelishuvni (konsensus) xalqaro hamjamiyatga yetkazish masalalari va sintaksis va uning Web-ilovalar bilan bog`lanishi muammolari muhokama qilindi. HTML tarkibiga kiritiladigan metama`lumotlar hech qachon DYAsi uchun yagona maqsad bo`lmagan, ammo bu mexanizmni uning boshlang`ich bosqichidan boshlab tatbiq qilinishi juda muhim bo`lgan va bu strategiya bir qator loyihalarda aks etgan. Seminarda "Uorvik - struktura" (Warwick Framework, [WF]) nomi bilan yuritilgan metama`lumotlar arxitekturasi ishlab chiqildi. Bu struktura meta-mazmun (Meta Content Framework, [MCF]) strukturasi bilan birga, Resource Description Framework (RDF) resurs tavsifi strukturasini ishlab chiquvchi yadroni tashkil qiladi. RDF Web-metama`lumotlarning egiluvchan sintaksik asosini ta`minlashi kerak.

Grafika bilan ishlovchi mutaxassislar ishtirokida o`tkazilgan uchinchi seminarda tasvirlarga ega bo`lgan resurslar tavsifini yaratish muammolari muhokama qilindi. Matnli va tasvirli resurslar orasida farq bo`lsada ularni guruhlarga ajratuvchi kategoriyalarda uncha katta farq yo`q. Elementlarga berilgan bir necha ta`riflar qarab chiqildi va avvalgi 13 elementga yana 2 ta element qo`sildi.

Dublin yadrosi bo`yicha 4-seminar 1997 yilning mart oyida Avstraliyaning Kanberra shahrida bo`lib o`tdi. Seminardagi bahs asosan “minimalist”lar va “strukturalist”lar orasida bo`lib o`tdi. Minimalistlar DYAsini imkon qadar kamaytirishga harakat qilgan bo`lsalar, strukturalistlar esa ixtiyoriy elementar ilovalarni qamrab oluvchi metama`lumotlar mazmunini aniqlashga harakat qildilar. Kerakli identifikatorlar xarakterini aniqlash – seminar erishgan eng muhim natija bo`ldi.

Metama`lumotlar bo`yicha Xel`senkida bo`lib o`tgan 5-seminar kutubxonachilar, axborot texnologiyalari, telekommunikatsiyalar bo`yicha mutaxassislar va muzuyshunoslar ishtirokida bo`lib o`tdi. Seminarda DYAsining asosiy elementlaridan Internet tarmog`ida samarali qidirishni tashkil qilish masalalari muhokama qilindi.

Bizga ma`lumki gipermatnli ma`lumotlarni Internet tarmog`iga joylashtirish uchun “meta-teg”lardan foydalaniladi. HTML tilining meta-teglari gipermatnli HTML shakldagi hujjatning <head>...</head> konteynerida ishlatiladi. Ulardan foydalanish gipermatnli hujjatlarni Internet tarmog`ida qidirishni osonlashtiradi.

Dublin yadrosi tizimi 1995 yilning mart oyida AQSH Ogayo shtati Dublin shahrida OCLC shtab-kvartirasi xodimlari tomonidan ishlab chiqildi. Mazkur tizimni ishlab chiqishda yuzlab mutaxassislar ishtirok etdi. DYAsining tizimi ishchi

uchrashuvlarda va elektron pochta orqali muhokama qilindi. OCLCdagи ishchi uchrashuvlarda tizimning asosiy metama`lumotlari (bugungi kunda ular 15 ta) ishlab chiqildi. DYAning barcha elementlari majburiy emas. Quyida Vil`yam Arms tomonidan [1] keltirilgan DYА elementlarini keltiramiz.

Title (Sarlavha) — noshir yoki resurs yaratuvchi tomonidan resursga berilgan nom.

Creator (Muallif) — resursning intellektual mazmuniga javobgar shaxs yoki tashkilot (qo`lyozma hujjatlar uchun bu mualliflar, bajaruvchilar; vizual resurslar uchun bu fotograflar yoki illyustratorlar). Umuman olganda “sreator” so`zi “yaratuvchi” sifatida tarjima qilinadi, ammo biz uni “muallif” sifatida qabul qilishimiz mumkin.

Subject (Predmet) — resurs mavzusi. Odatda predmet yoki resurs mazmuni ochqich so`zlar yoki jumla orqali ifodalanadi. Bu elementdan foydalanilayotganda nazorat qilinayotgan so`zlardan yoki klassifikatsiyalashning format sxemalaridan yordamchi material sifatida foydalanish tavsiya qilinadi.

Description (Annotatsiya) — resurs mazmunining matnli tavsifi. Hujjatlar uchun referet shaklda, vizual resurslar uchun ularning mazmunini olib beruvchi matnli tavsif shaklda bo`ladi.

Publisher (Nashriyot) — resursni joriy holatda yaratishga mas`ul bo`lgan tashkilot. Masalan: Sharq, Fan.

Contributor (Resursni yaratishda qatnashuvchi ikkinchi javobgar shaxs yoki tashkilot) — “Muallif” elementida ko`rsatilmagan, ammo resursni yaratishga qatnashgan shaxs yoki tashkilot (muharrir, tarjimon, rassom va boshq.).

Date (Sana) — resursni yaratish yoki paydo bo`lish sanasi.

Type (Tip) — resurs kategoriyasi — masalan, uy sahifasi, roman, poema, maqola, preprint, texnik hisobot, lug`at, esse.

Format (Format) — resurs ma`lumotlarini aks ettiruvchi format (odatda dasturiy vosita tipi ko`rsatiladi, resurs bilash ishlovchi kompyuter tipi ham ko`rsatilishi mumkin).

Identifier (Identifikator) — resursni identifikasiya qiluvchi harflar yoki raqamlar jamlamasi. Resurs tarmoqda taqdim qilinganda URL va URN ko`rsatiladi aks holda resurs joylashgan joy adresi ko`rsatiladi.

Source (Manba) — mazkur resurs olingan ikkilamchi manba to`g`risidagi axborot.

Language (Til) — resurs intellektual mazmuni bayon qilingan til.

Relation (Aloqa) — ikkilamchi resurs identifikatori va uning joriy resurs bilan aloqasi. Bu element o`zaro yaqin resurslarni bog`lashga hamda ko`rsatilishi kerak bo`lgan resurslarni tavsiflashga imkon beradi.

Coverage (Qamrov) — resursni joylashgan joyi va vaqt bo`yicha davom etishini xarakterlaydi.

Rights (Huquq) — mualliflik huquqini tasdiqlash va uni boshqarish; ular bilan bog`liq identifikator; mazkur resurs bilan bog`liq mualliflik huquqi va uni boshqarish to`g`risidagi axborotlar.

Dublin yadrosi bilan bog`liq barcha elementlarni uch guruhga ajratish mumkin:

- Resurs mazmuniga oid elementlar (Content);
 - Intellektual mulk nuqtai nazaridan raqamli resursni tavsiflovchi elementlar (Intellectual Property);
 - Aniq bir resurs nusxasiga tegishli elementlar (Instantiation).
- Quyidagi jadvalda yuqoridagi guruhlarga kiruvchi elementlar keltirilgan.

Content	Intellectual Property	Instantiation
Title		
Subject		
Description	Creator	Date
Type	Publisher	Format
Source	Contributor	Identifier
Relation	Rights	Language
Coverage		

Dublin yadrosi yordamida raqamli resurslarni tavsiflash juda sodda. Tabiiy tildagi o`n beshta maydonni har qanday odam ham to`ldira oladi. Mazkur teglar yordamida elektron resurslarni indekslashga mo`ljallangan.

Dublin yadrosi rivojlanib borayotgan tizim bo`lib, undan foydalanayotganda kutubxonachilik ishi, kompyuter sohasi va yuridik fanlar sohasida ishlayotgan mutaxassislarda bir qator savollar paydo bo`ladi. Kutubxonachilik sohasidagi mutaxassislarni DYA metama`lumotlarini elektron kutubxonalarda qo`llash va hujjatlarni indekslashdagi yuqori aniqlik qiziqtirsa, kompyuter texnologiyalari bilan shug`ullanuvchilar esa DYA elementlari tarkibiga yangi elementlar qo`sish orqali axborot qidiruvi samaradorligini oshirishga intilmoqdalar. Huquqshunoslarni esa elektron resurslarga bo`lgan mualliflik huquqini himoya qilish masalalari qiziqtirmoqda. DYA tizimidagi metama`lumotlar MARC formatlarni o`rnini bosa olmaydi va uning o`rniga o`ta olmaydi. Dublin yadrosi tizimi elektron kutubxonalarning raqamli resurslarini tavsiflashga mo`ljallangan.

2.2. Elektron darsliklar, qo`llanmalar, ma`ruzalar matnlariga ikki bosqichli bibliografik ishlov berish algoritmi

Kutubxona fondiga kelib tushayotgan barcha hujjatlardan keyinchalik samarali foydalanish imkoniyatini yaratilishi uchun ular kataloglashtiriladi. O`zbekistondagi barcha ARM, AKM va kutubxonalar xalqaro kataloglashtirish talablariga javob beradigan darajada elektron katalog yaratish imkoniyatiga ega emas. Hozirgi kunga qadar 40 dan ortiq kutubxonalar o`z elektron kataloglarini IRBIS tizimi asosida shakllantirmoqdalar. Xalqaro talablarga javob beradigan elektron katalog UNIMARC, RUSMARC, MARC21, DUBLIN CORE yoki boshqa bir MARC formati asosida shakllantirilishi lozim. Hujjatlarni UNIMARC formati asosida kataloglashtirish ancha murakkab ish hisoblanadi. Maxsus ma`lumotga ega bo`lgan kutubxonachi mutaxassisgina bunday vazifani uddalay oladi. Oliy o`quv yurtlari, akademik litsey, kollejlar va bu ish bilan maxsus

shug`ullanayotgan tashkilotlarda yaratilayotgan elektron darsliklar, ma`ruza matnlari, uslubiy qo`llanmalarni kataloglashtirishda muammolar tug`ilmoqda. Ularning eng asosiysi yaratilayotgan elektron nashrlarni kataloglashtirishda xalqaro talablarni hisobga olmaslikdir. Ya`ni, axborot resurs markazlari yaratayotgan elektron resurslarning elektron katalogini to`g`ri tashkil qilmayaptilar. Elektron katalog bazasini shakllantirishda MARC formatlar talablari bajarilmayapti. Bu esa bir ARM yoki AKMda yaratilgan katalogdan ikkinchi bir ARM yoki AKMda foydalanish imkoniyatini cheklaydi. Ya`ni, har bir ARM, AKM yoki kutubxona faqat avtonom holda ishlaydigan bo`lib qoladi. Korporativ tizimlarning (korporativ kataloglashtirish, elektron resurslarni hamkorlikda yaratish va ulardan birgalikda foydalanish) imkoniyatlaridan mahrum bo`ladi.

Elektron resurslarni kataloglashtirishni tezlashtirish va sifatini oshirish maqsadida ikki bosqichli kataloglashtirish usulini taklif qilamiz.

Kataloglashtirishning birinchi bosqichida elektron darslik, qo`llanma, ma`ruza matni muallifi tomonidan “Dublin Core” formati asosida hujjatning dastlabki bibliografik tavsifi yaratiladi. Hujjatning dastlabki bibliografik tavsifi “Dublin Core” formatidan maxsus konvertor dasturi yordamida “UNIMARC” formati qabul qiladigan shaklga o`tkaziladi. Buning uchun “Dublin Core”da tashkil qilingan bibliografik yozuv ISO 2709 standartida saqlanishi kerak.

Kataloglashtirishning ikkinchi bosqichida kutubxonachi kataloglashtiruvchi tomonidan ISO 2709 standartidagi yozuv AKAT bazasiga “UNIMARC” formati asosida import qilinadi. AKAT elektron katalogi bazasidagi kamida 15 ta maydon ma`lumotlarni import qilish hisobiga to`ldiriladi. Qolgan maydonlarni kataloglashtiruvchi mustaqil ravishda to`ldirib, hujjatning to`liq bibliografik tavsifini yaratadi.

Elektron resurslar katalogini yaratishda ikki bosqichli kataloglashtirish usulidan foydalanishning afzalliklari quyidagicha:

- Elektron darslik, qo`llanma va ma`ruza matni muallifi tomonidan “Dublin Core” formati asosida yaratilgan bibliografik tavsif aniq bo`ladi (darslikning muallifi, sarlavhasi, elektron darslikning annotatsiyasi, ochqich so`zлari, kirish nuqtalari va boshqa bir qator tavsif elementlari muallif tomonidan beriladi);
- Muallif tomonidan tayyorlangan bibliografik yozuv konvertor dasturi yordamida AKATning bazasiga import qilingani uchun yo`l qo`yilishi mumkin bo`lgan xatolar soni keskin kamayadi;
- Kataloglashtirilayotgan hujjatning tavsifini yaratishda bevosita muallifning ham ishtirok etishi va bibliografik tavsif asosiy elementlari muallif tomonidan yaratilishi, birinchidan, kataloglashtirish jarayonini tezlashtiradi, kataloglashtirish harajatlarini kamaytiradi, ikkinchidan, yaratilayotgan elektron katalog sifatini oshiradi (ochqich so`zlar, annotatsiyaning aniq ifodalanishi). Bu esa o`z navbatida xizmat ko`rsatish sifatini ortishiga olib keladigan omillardan biri hisoblanadi.

“Dublin Core” formatining bibliografik tavsif tuzish qoidalariga amal qiladigan “UNIMARC” formatiga nisbatan ancha soddaligi bibliografik yozuvlarni

konvertatsiya qilishdagi asosiy muammo hisoblanadi. Bu ikki formatlarning mos elementlarini taqqoslaymiz:

Dublin Core	UNIMARC
<i>Title</i> (Sarlavha)	200 \$a Asosiy sarlavha 200 \$e Sarlavhaga tegishli ma`lumot 517 \$a Sarlavhaning varianti
<i>Creator</i> (Avtor)	700 \$a Birinchi intellektual javobgarlik – Shaxs nomi 701 \$a Al`ternativ intellektual javobgarlik – Shaxs nomi 710 \$a Tashkilot nomi – Birinchi intellektual javobgarlik 711 \$a Tashkilot nomi – al`ternativ intellektual javobgarlik 200 \$f Javobgarlik to`g`risidagi birinchi ma`lumot
<i>Subject</i> (Predmet Ochqich so`zlar)	610 \$a Nazorat qilinmaydigan predmet atamalari 606 Mavzu nomi predmet sifatida 675 Universal o`nli klassifikatsiya (UDC/UO`K) 676 D`yuining O`nli klassifikatsiyasi (DDC/DO`K) 680 AQSH Kongressi Kutubxonasining Klassifikatsiyasi (LCC/KKK) 686 Boshqa klassifikatsiyalar indekslari
<i>Description</i> (Annotatsiya)	330 \$a Rezyume yoki referat
<i>Publisher</i> (Noshir)	210 \$c Noshir, tarqatuvchi va boshqalar nomi
<i>Contributor</i> (Muallifdosh)	701 \$a Al`ternativ intellektual javobgarlik – Shaxs nomi 711 \$a Tashkilot nomi – intellektual al`ternativ javobgarlik 200 \$g Javbgarlik to`g`risidagi keyingi ma`lumotlar
<i>Date</i> (Sana)	210 \$d Nashr qilingan va tarqatilgan sana
<i>Type</i> (Tip)	608 Hujjatning shakli, janri, fizik xarakteristikasi kirish nuqta sifatida
<i>Format</i> (Format)	230 \$a Materialning maxsus sohasi: elektron resursning xarakteristikasi 336 \$a Kompyuter faylining tipi
<i>Identifier</i> (Identifikator)	001 (UNIMARC uchun majburiy) 010 (ISBN) 011 (ISSN) 020 (Hujjatning milliy bibliografiyadagi nomeri) 035 Boshqa tizimli nomerlar 856 \$u (URL)
<i>Source</i> (Manba)	324 Ilovaning original versiyasi
<i>Language</i> (Til)	101 Hujjat tili
<i>Reletion</i> (Munosabat)	300 Umumiyl ilova
<i>Covarage</i>	300 Umumiyl ilova


(Qamrov)	
<i>Rights</i> (Mualliflik huquqi)	333 Foydalanish va tarqatish shartlari to`g`risida ilova

Hujjatlarga UNIMARC (MARC21, RUSMARC) formatlari asosida ishlov berganda ba`zi bir maydonlarning to`ldirilishi majburiyidir, aks holda bibliografik tavsif to`liq bo`lmaydi. Quyida UNIMARC formatida to`ldirilishi majburiy bo`lgan maydonlarning “Dublin Core” formatidagi maydonlar bilan mosligini taqqoslasmiz.


UNIMARC	Dublin Core
001 – Yozuv identifikatori	<i>Identifier</i> (Identifikator)
100 – Umumiy ishlov berilayotgan ma`lumotlar	<i>Date</i> (Sana), <i>Language</i> (Til)
101 – Hujjat tili	<i>Language</i> (Til)
200 – Sarlavha va javobgarlik haqidagi ma`lumotlar	<i>Title</i> (Sarlavha), <i>Creator</i> (Muallif), <i>Contributor</i> (Muallifdosh)

Biz yuqorida “Dublin Core” formatining 15 elementining birortasi majburiy element emas deb eslatgan edik. “Dublin Core” formatidan UNIMARC formatiga konvertatsiya bajarilayotganda *Title* (Sarlavha) va *Language* (Til) elementlari to`ldirilgan bo`lishi shart. Demak, “Dublin Core” formati asosida o`z kitobining dastlabki bibliografik tavsifini yaratayotgan muallif albatta kitobning sarlavhasi, tili, muallif (mualliflar) nomlarini va to`liq matn joylashgan manzil adresni hamda hujjat yaratilgan sanani ko`rsatishi shart.

Ikki bosqichli katalogglashtirishning umumiyligi algoritmi




Elektron nashrni kataloglashtirishning birinchi bosqich algoritmi



Nashr muallifi (mualliflar) tomonidan tayyorlangan “Dublin Core” formati asosidagi bibliografik tavsif kataloglashtirishning ikkinchi bosqichida tekshiriladi va kataloglashtirish qoidalariga ko`ra to`ldiriladi.

Elektron nashrni kataloglashtirishning ikkinchi bosqich algoritmi



Elektron darsliklar, qo`llanmalar, ma`ruza matnlarini kataloglashtirishda muallif (mualliflar)ning ishtiroy etishi yaratilayotgan bibliografik tavsifning aniq, to`liq va sifatli bo`lishini ta`minlabgina qolmay balki, kataloglashtirish jarayonini tezlashtiradi, sarf harajatlarni kamaytiradi hamda, pirovard natijada xalqaro kataloglashtirish talablarga javob beradigan elektron katalog yaratilishi hisobiga kitobxonlarga xizmat ko`rsatish sifatini yuksaltirishga olib keladi.

2.3. Avtomatlashtirilgan integral axborot-kutubxona tizimi bazasini shakllantirishda Dublin yadrosi tizimidan foydalanish

Bugungi kunda respublikamizning oliy o`quv yurtlari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tashkil qilingan ARMLarda ko`plab elektron resurslar (elektron kataloglar, darsliklar, qo`llanmalar turli ko`rinishdagi raqamli resurslar) yaratilmoqda. Elektron shakldagi o`quv qo`llanmalar, ma`ruza matnlari jamlanib elektron kutubxonalar yaratishga harakat qilinmoqda. Bizga ma`lumki, elektron kutubxonada asosan elektron shakldagi hujjatlar saqlanadi. Yuqorida ko`rib

o`tganimizdek elektron resurslar tavsifini yaratish uchun Dublin yadrosidan foydalaniladi. Quyida oliv o`quv yurti professori tomonidan yaratilgan ma`ruza matnini avtomatlashtirilgan axborot-kutubxona tizimining elektron katalogiga kiritish jarayonini ko`rib chiqaylik.

Dublin yadrosi asosida yaratilgan metama`lumotlarni konvertatsiya qilishga mo`ljallangan maxsus dasturni ishga tushiramiz. Dastur ishga tushgach kompyuter ekranida quyidagi forma paydo bo`ladi. Formaning maydonlarini to`ldiramiz (1-rasm).

1-rasm
Tegishli maydonlarni to`ldiramiz (2-rasm).

2-rasm

“Oldinga” tugmasini bosib formaning keyingi sahifasiga o`tamiz (3-rasm).

Formz

Abstract	uzb		
Anotatsiya	+Anotatsiya		
CorporateName	uzb		
Noshir (Nashriyot)			
Red., Tuz., Tarj.... Редактор	uzb		
Familiyasi	Ismi	Sharifi	+Red....
Sana	30/09 2007		
Tip	Text	+Tip	
<input type="button" value="<<Orqaga"/> <input type="button" value="Oldinga>>"/>			

3-rasm

Tegishli maydonlarni to`ldiramiz. “Oldinga” tugmasini bosib keyingi sahifaga o`tamiz (4-rasm) va tegishli maydonlarni to`ldiramiz.

Abstract	uzb					
Anotatsiya	Китоб "Ахборотлаштириш ва кутубхонашунослик" таълим йўналишида таълим олувчилик мулжа лангандаги асосий жараёнлар: ахборотларни йигиш, саклаш, ишлов бериш, кидириш	+Anotatsiya				
CorporateName	uzb					
Noshir (Nashriyot)	Алишер Навоий номидаги Узбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти.					
Red., Tuz., Tarj.... Рецензент	uzb					
Familiyasi	Рахматуллаев	Ismi	Марат	Sharifi	Алимович	+Red....
Редактор						
Familiyasi	Умаров	Ismi	Абсалом	Sharifi	Одилович	
Sana	30/09 2007					
Tip	text/html	+Tip				
<input type="button" value="<<Orqaga"/> <input type="button" value="Oldinga>>"/>						

4-rasm


Tegishli maydonlar to`ldirilgach “Oldinga” tugmasini bosib konvertorning keyingi sahifasiga o`tamiz (5-rasm). Format, identifikator, manba, til, munosabat, qamrov va mualliflik huquqi maydonlarini tegishli ma`lumotlar bilan to`ldiramiz. Agarda biror bir maydonga ma`lumot kiritishda tushummovchilik paydo bo`lsa, shu maydonni ifodalovchi tugma ustiga cursor bilan chertsak, maydonga kiritilishi kerak bo`lgan ma`lumot to`g`risida foydalanuvchiga tegishli yordam beriladi. 5-rasmning tegishli maydonlarini to`ldirishga kirishamiz.

Form3

Format	txt
Identifikator	<input type="text"/> <input type="button" value="Obzor"/> <input type="button" value="+Obzor"/> <input type="button" value="ISBN"/> <input type="button" value="ISSN"/>
Manbaa	<input type="text"/> uzb <input type="button"/>
Til	uzb <input type="button"/>
Munosabat	<input type="text"/> uzb <input type="button"/>
Qamrov	<input type="text"/> uzb <input type="button"/>
Mualliflik xuquqi	<input type="text"/> uzb <input type="button"/>
<input type="button" value="<<Orqaga"/> <input type="button" value="Saqlash"/>	


5-rasm

“Obzor” tugmasini bosish orqali elektron resurs joylashgan joydagi faylni dublin yadrosidagi tavsif bilan bog`laymiz (6-rasm).



6-rasm

Elektron resursni tavsiflash uchun zarur bo`lgan barcha maydonlar to`ldirilgach, “Saqlash” tugmasi bosiladi (7-rasm). “Imya fayla” maydoniga metama`lumotni saqlashga mo`ljallangan fayl nomi beriladi va u kerakli (masalan, “Rabochiy stol”da ufk.txt fayl ko`rinishida) papkada saqlanadi (7-rasm).



7-rasm



Elektron resursning Dublin yadrosi tizimi asosida yaratilgan metama`lumotlarni avtomatlashtirilgan axborot-kutubxona tizimiga ko`chirib o`tkazish jarayonini ko`rib chiqamiz.


Shunday qilib biz yuqorida “Informatika” nomi bilan U.F.Karimov va A.Sh.Muhamadievlar tomonidan yaratilgan elektron darslik metama`lumotlarini Dublin yadrosidan foydalanib yaratdik va uni “Rabochiy stol – ish stoli”da “ufk.txt” nomli fayl ko`rinishida saqladik.

Quyida mazkur metama`lumotlarni IRBIS tizimining elektron katalogi bazasiga kiritish jarayonini ko`rib chiqamiz.


Buning uchun dastlab IRBIS tizimining “Kataloglashtiruvchi” avtomatlashtirilgan ish o`rmini ishga tushiramiz (8-rasm). Tizimning metama`lumotlarni import qilishga mo`ljallangan tugmasini bosib (9-rasm) u yerdagi «tekstovoy» maydoniga belgi qo`yamiz hamda «Vipolnit» tugmasini bosamiz. “Rabochiy stol – ish stolidan” “ufk.txt” faylini tanlaymiz (10-rasm, 11-rasm)da ko`rsatilgan “OK” tugmasini bosib 12-rasmga ega bo`lamiz. “Budete redaktirovat?” savoliga “da” javobi berilgach elektron resursning IRBIS tizimi elektron katalogiga kiritilganligi to`g`risidagi axborotga ega bo`lamiz (13-rasm).

Shunday qilib, Dublin yadrosi tizimidan foydalanib, avtomatlashtirilgan axborot-kutubxona tizimining elektron katalogiga “Informatika” nomli elektron resursning metama`lumotlarini va resursning to`liq matnini kiritishni ko`rib chiqqdik.







10-rasm



11-rasm



12-rasm



13-rasm

Elektron kutubxonaning elektron resurs tavsifini yaratishga mo`ljallangan Dublin yadrosi metama`lumotlaridan foydalanish, birinchidan, elektron kutubxona bazasini shakllantirishda qulay va o`zlashtirish uchun sodda bo`lsa, ikkinchidan xalqaro talablar asosida tashkil qilinishi tufayli kelgusida kutubxonalar orasidagi resurslar almashinuvida ham keng foydalanishi mumkin. Dublin yadrosi metama`lumotlari elektron resurslarni qidirishni ham osonlashtiradi. Eng asosiysi oliy o`quv yurtining elektron resurs yaratuvchi har qanday mutaxassisini qiyalmasdan, o`zi yaratgan raqamli resursni avtomatlashtirilgan tizimning

elektron katalogi bazasiga mustaqil ravishda joylashtira oladi. Bu esa o`z navbatida avtomatlashtirilgan axborot-kutubxona tizimi bazasini shakllantirish sifatini oshiradi, kataloglashtirish jarayonini tezlashtiradi.

3-BOB. “KARMAT-EK” DASTURI ASOSIDA ELEKTRON KUTUBXONA YARATISH


3.1 Tizimni o`rnatish

Tizim CD diskda taqdim qilinadi. SD diskda foydalanuvchi uchun yo`riqnomasi va dasturni avtomatik o`rnatuvchi setup.exe dasturi bilan taqdim etiladi. Tizimni o`rnatishda faqat bitta dasturiy vositadan foydalaniladi.

Eslatma: Tizim foydalanuvchining kompyuteriga o`rnatiliyotganda uning kompyuterida Apache veb serveri va MySQL MBBTSi bo`lmasligi kerak, chunki tizim uchun kerak bo`lgan barcha dasturiy vositalar avtomatik tarzda o`rnatiladi. Agar bunday dasturiy vositalar foydalanuvchi kompyuterida avvaldan o`rnatilgan bo`lsa nima bo`ladi? Bu dasturlarni kompyuterdan o`chirib tashlash kerak yoki KARMATni moslash kerak.

Tizimni o`rnatish uchun quyidagi amallarni bajarish kerak:


- 1) setup.exe dasturiy vositasini ishga tushiring. O`rnatgichni dastlabki ko`rinishida foydalanuvchi muloqot tilini tanlaydi (1-rasm).



1-rasm: Muloqot tilini tanlash


Muloqot oynasidan o`zingizga tushunarli tilni tanlang va **OK** tugmasini bosing. (Hozirda tizim o`rnatgichi ingliz va rus tillarida yaratilgan, keyingi versiyalarda o`rnatgichni o`zbek tilida ham ishlash imkoniyati yaratiladi).

- 2) Muloqot tili tanlanib OK tugmasi bosilgach quyidagi oyna ko`rinadi.




2-rasm: Tizim haqida ma`lumot

- 3) Bu oynada siz tizim haqidagi qisqacha ma`lumotga ega bo`lasiz, shundan so`ng **Dalee** > tugmasini bosing. **Dalee** > tugmasi bosilgach sizga quyidagi oyna ko`rinadi (3-rasm).



3-rasm: Tizim o`rnatiladigan katalogni tanlash


- 4) Ushbu oynada siz tizimni qayerga o`rnatishingizni ko`rsatasiz va yana **Dalee** > tugmasini bosing. **Dalee** > tugmasi bosilgach dasturiy tizim qanaqa nomda Dasturlar ro`yxatiga kiritilishi haqida sizga ma`lumot beruvchi quyidagi oyna ochiladi (4-rasm).



4-rasm: Tizim dasturlar ro`yxatida qanday nomda bo`lishi ko`rsatilgan


- 5) Ushbu oynada sizda dastur nomini o`zgartirib saqlash imkoniyati ham mavjud. **Dalee** > tugmasini bosing. **Dalee** > tugmasi bosilgach (5-rasm), yangi oyna ochiladi va u sizdan ish stolingizda tizimni tez chaqirish uchun yorliq yaratilishi kerak yoki kerakmasligini so`rovchi oyna ochiladi.

(Eslatma: Tizim o`rnatilgach har safar kompyuter ishga tushganda avtomatik ishga tushadi, shuning uchun ish stolida tizimni ishga tushiruvchi yorliq bo`lishi unchalik zarur emas).




5-rasm: Foydalanuvchi ish stolida tizimni ishga tushiruvchi (yorliq) yaratilishi haqidagi so`rovnama

- 7) So`rovnama oynasida Dalee > tugmasi bosilgach quyidagi ma`lumot oynasi ochiladi (6-rasm). Ushbu oynada foydalanuvchi tizim kompyutering qaysi katalog va qismlariga o`rnatilishi haqida ma`lmotga ega bo`ladi.




6-rasm: Ma`lumot oynasi

- 8) Ma`lumotlar oynasida **Ustanovit`** tugmasi bosilgach, KARMAT-M tizimi o`rnatilishni boshlaydi, bu vaqtda agar o`rnatish jarayonini to`xtatish kerak bo`lsa **Otmena** tugmasini bosing aks holda faqat kuting.



7-rasm: Tizimni o`rnatilish jarayoni

- 9) Tizimni o`rnatish ishlari tugallangach quyidagi oyna ko`rinadi. Bu oyna tizim o`rnatilish jarayoni tugallanganligi haqida axborot beradi va foydalanuvchidan KARMAT-M tizimini ishga tushirish kerak yoki kerakmasligini so`raydi.



8-rasm: Tizim o`rnatilish jarayoni tugallanganligi haqida ma`lumot beruvchi oyna


3.1.1 Tizim ishini boshqarish

Tizimni ishga tushirish ishini to`xtatish uchun maxsus dasturiy ta`minot yaratilgan. Tizim o`rnatilib birinchi bor ishga tushirilgandan so`ng bu dasturiy ta`minot foydalanuvchi kompyuterida ishlab turadi. Uning ko`rinishi quyidagi rasmda keltirilgan (9-rasm).



9-rasm: Tizim ishini boshqaruvchi dasturiy vosita

Ish stolinigizdagи K belgili pictogrammaga borib sichqonchani o`ng tugmasini bosing va shundan so`ng quyidagicha menyu osti paydo bo`ladi:




10-rasm: Tizim boshqaruvchini bajaradigan vazifalari

Bu dasturiy vosita quyidagi uchta vazifani bajaradi:

1. Ishga tushirish – Apache va MySQL ni ishga tushirish.
2. To`xtatish - Apache va MySQL ni ishini to`xtatish.
3. Ochish – Brouzerda KARMAT-EK tizimini ishga tushirish.

Dasturning bosh sahifasi

Dastur ishga tushirilgach foydalanuvchi kompyuterining monitorida quyidagi interfeys paydo bo`ladi (3.1-rasm).



3.1-rasm

Dastur interfeysi ikki tilda (o`zbek va rus) yaratilgan. Foydalanuvchi dastur interfeysining yuqori o`ng tomonda joylashgan tugmachalardan foydalanib, o`ziga maqbul bo`lgan muloqot tilini tanlashi mumkin. Infeydsagi “Katalog” menyusidan foydalanib ma`lumotlar bazalaridan keraklisini tanlash mumkin. Bosh sahifaning asosiy qismida elektron kutubxonadan foydalanish qoidalari keltirilgan. Bosh sahifada foydalanuvchilar uchun quyidagi imkoniyatlar yaratilgan:

1. “Qidirish” va “Kengaytirilgan qidirish” tugmalarini bosish orqali elektron kutubxona fondida qidiruv bajarish.
2. Topilgan hujjatlarning bibliografik tavsifini, annotatsiyasini, mundarijasini va elektron kutubxonada (EK) erkin ko`rishga mo`ljallangan to`liq matnlarni ko`rib chiqishi mumkin.

- “Registratsiya” tugmasini bosish orqali foydalanuvchi EKda ro`yxatdan o`tishi uchun tegishli savollarga javob beradi, o`zining fotosuratini joylashtiradi.
- Elektron kutubxonaning pullik resurslari va ularga kirish uchun kimga murojaat qilish kerakligi to`g`risidagi axborotlarga ega bo`ladi.

3.1.2 Foydalanuvchining elektron kutubxonada ro`yxatdan o`tishi

Elektron kutubxonaga a`zo bo`lish uchun foydalanuvchi bosh sahifadagi “Registratsiya” tugmasini bosishi va paydo bo`ladigan quyidagi interfeysdagi savollarga javob berishi kerak (3.2-rasm).

3.2-rasm


Yyqoridagi barcha maydonlar to`ldirilgach va foydalanuvchining fotosurati “Obzor” navigatori yordamida biriktirilgach “Qo'shish” tugmasi bosiladi va foydalanuvchi to`g`risidagi ma`lumotlar tizim kataloglashtiruvchisining avtomatlashtirilgan ish o`rniga yuboriladi. Foydalanuvchi o`ziga berilgan “Parol” va “Login” ni elektron pochta orqali oladi.

“Parol” va “Login” ga ega bo`lgan foydalanuvchi EKning “Kitobxoni” maqomiga ega bo`ladi va u EK barcha imkoniyatlaridan foydalanish huquqini qo`lga kiritadi.

3.2. Elektron kutubxona kataloglashtiruvchisining avtomatlashtirilgan ish o`rnii

Kataloglashtiruvchining AIO` asosan tizimning elektron katalogi (EK) bazasini shakllantirishga mo`ljallangan bo`lib bu yerda kutubxona fondiga kelib tushayotgan adabiyotlarga bibliografik ishlov berish va kitobxonlarning elektron formulyari yaratiladi. Ma`lumotlar EK bazasiga klaviatura yordamida qo`lda terilib kiritiladi va ayni paytda EK bazasini shakllantirishda avvaldan tayyorlangan bibliografik yozuvlar bazasidan o`z EK bazasini yaratishda foydalanish imkonyati ham yaratilgan. Tizim Web texnologiyalarining so`nggi yutuqlaridan foydalanib yaratilganligi tufayli KARMATning maxsus moduli AKM, ARM va kutubxonalarning elektron bibliografik resurslarini Internet tarmog`ida taqdim qila oladi. Kataloglashtiruvchining AIO` asosan ikki funksiyani bajaradi: kitobxonlar to`g`risidagi va ARM fondidagi hujjatlarning bibliografik tavsif elementlarini elektron katalog bazasiga kiritadi, ya`ni elektron katalog bazasini shakllantiradi.

Tizimning elektron katalog bazasini shakllantirish va foydalanuvchilarni EKda ro`yxatdan o`tkazish “Kataloglashtiruvchining avtomatlashtirilgan ish o`rnida” bajariladi. Kataloglashtiruvchining avtomatlashtirilgan ish o`rniga (AIO`) kirish uchun “Login” va “Parol” maydonlariga mos ravishda “sat” va “11” qiymatlar kiritiladi. Kataloglashtiruvchining AIO` quyidagi ko`rinishga ega (3.3-rasm).



3.3-rasm


3.2.1 Kataloglashtiruvchining AIO`da kitobxonlarni ro`yxatga olish

Kataloglashtiruvchining AIO`da kitobxonlarni ro`yxatga olish uchun interfeys chap tomonidagi tugmalar ro`yxatidan “Kitobxonlar” tugmasi tanlanib sichqoncha bilan chertiladi va quyidagi shaklga ega bo`lamiz (3.4-rasm).



3.4-rasm

Bu yerda EKda ro`yxatdan o`tgan kitobxonlarning familiyasi, ism sharifi va ularga tegishli ba`zi bir ma`lumotlar keltirilgan. EKga yangidan a`zo bo`lishni istagan va o`zi to`g`risidagi ma`lumotlarni EKning kataloglashtiruvchisiga yuborgan foydalanuvchilarga tegishli “Parol” va “Login”ni berish uchun tugmasini bosamiz va quyidagi interfeysesga ega bo`lamiz (3.5-rasm).



3.5-rasm

Bu yerdagи “Login” va “Parol” maydonlariga “Kataloglashtiruvchi” tomonidan foydalanuvchiga berilgan “Login” va “Parol” kiritiladi va “Tahrirlish” tugmasi bosiladi. Foydalanuvchining elektron pochtasi orqali bu “Login” va “Parol” unga yuboriladi. Shunday qilib Internet/Intranet tarmog`i orqali ro`yxatgan o`tishni istagan foydalanuvchilar ro`yxatga olinadilar. Bu yerda kitobxonga tegishli

ma`lumotlarni tahrirlash mumkin. Buning uchun (3.4-rasm)dagи tugmadan foydalaniladi. Agarda biror bir kitobxonni kitobxonlar ro`yxatidan o`chirish kerak

bo`lganda tugmasidan foydalaniladi. Familiyasi ro`parasiga belgisi quyilgan va kitobxonga tegishli maydonlar to`ldirilgan foydalanuvchi tizimda ro`yxatdan o`tgan hisoblanadi.

3.2.2. Kataloglashtiruvchining AIO`da EK ma`lumotlar bazasini shakllantirish

Kataloglashtiruvchining AIO`da EK ma`lumotlar bazasini shakllantirish uchun tizim interfeysidagi “Elektron katalog” tugmasini bosamiz va quyidagi interfeysga ega bo`lamiz (3.5.1-rasm). Kataloglashtiruvchining AIO`da quydagilarni bajarish mumkin.

1. Bibliografik tavsifning elementlari bo`yicha qidiruv bajarish.
2. Yangi hujjatlar bibliografik tavsif elementlari asosida elektron katalog bazasini shakllantirish.

3. Ma`lumotlar bazasidagi hujjatlarni tahrirlash.
4. Ma`lumotnomalar bazalarini (dynamik va statik) shakllantirish.
5. Ma`lumotlar bazasidagi bibliografik yozuvlarini eksport/import qilish.




3.5.1-rasm

ARMga kelib tushayotgan hujjatlar bibliografik tavsif elementlari va to`liq matnni tizimning elektron katalogiga kiritish uchun “Yangi adabiyot qo`shish” tugmasi bosiladi va quyidagi shaklga ega bo`lamiz (3.6-rasm).


Maydonlarni belgilangan tartib va qoidalar asosida to`ldiramiz va hujjat bibliografik tavsifini saqlash maqsadida “Qo`shish” tugmasini bosamiz.

1. Hujjat sarlavhasi 245 maydonga kiritiladi buning uchun 245 maydonning o`ng tomonidagi uch nuqtali tugmachani sichqoncha bilan chertamiz. Ochiladigan maydon ostiga tegishli ma`lumotni klavishlardan yoki dynamik ma`lumotnomadan foydalanib kiritamiz (3.7-rasm).
2. Hujjatning ilmiy texnikaviy rubrikator bo`yicha indeksini aniqlash 999A maydoni orqali bajariladi. Bunda hujjat rubrikatorning qaysi rukniga tegishli ekanligi ierarxik ma`lumotnomadan foydalangan holda aniqlanadi (3.8-rasm). Buning uchun 999A maydonning o`ng tomonidagi uch nuqtali tugmachani bosamiz va tegishli ruknni topib sichqoncha bilan chertib kerakli indeksni o`rnatamiz.
3. Hujjat tegishli bo`lgan mavzu (predmet)ni aniqlash uchun 019 maydonning maydonostilarini tegishli tartibda to`ldiramiz (3.9-rasm). Bunda dinamik ma`lumotnomadan foydalanib UDK (BBK) va “Ochqich so`zlar” maydonlari tegishli tartibda to`ldiriladi.


4. Hujjat annotatsiyasi (referati) 520A maydoniga kiritiladi. Ma'lumotlar bevosita klaviatura orqali qo'lda terilishi yoki nusxa ko'chirish orqali bajarilishi mumkin.




3.6-rasm



3.7-rasm




3.8-rasm



3.9-rasm


Shunday qilib, bibliografik tavsifning barcha elementlari tizimning maydon va maydon ostilariga ketma- ket kiritiladi.

Kataloglashtiruvchiga yordam sifatida har bir maydonga kiritilayotgan metama`lumot to`g`risidaga axborotni sichqoncha bilan tegishli maydonga chertish orqali olish mumkin (3.9.1-rasm).




3.9.1-rasm


Ma`lumotlar bazasiga kiritilayotgan hujjatning bibliografik tavsifini kartochka ko`rinishida bosib chiqarish uchun “Chop qilish” tugmasi bosiladi (3.10-rasm). Bibliografik yozuvning chap tomonidagi kichik kvadratchaga sichqoncha bilan chertib belgi qo`yamiz va “Chop qilish” tugmasini bosamiz natijada quyidagiga ega bo`lamiz (3.11-rasm). «Otkrit» tugmasi bosilgach bibliografik tavsifga ega kartochkani ko`ramiz (3.12-rasm).



3.10-rasm




3.11-rasm



3.12-rasm


3.2.3. Bibliografik yozuvlarni eksport/import qilish

Tizim tarkibidagi joriy ma`lumotlar bazasidan boshqa ma`lumotlar bazasiga bibliografik yozuvni ko`chirib o`tkazish uchun “Export” tugmasidan foydalanamiz (3.13-rasm). Buning uchun boshqa ma`lumotlar bazasiga ko`chirib o`tkazilishi kerak bo`lgan bir yoki bir necha bibliografik yozuvning chap tomonidagi kichik kvadratchalarga sichqoncha bilan belgi qo`yamiz va “Export” tugmasini bosamiz.



3.13-rasm

Natijada quyidagi shaklga ega bo`lamiz (3.14-rasm).



3.14-rasm

Bu yerdagi “Katalog” maydoniga ko`chirib o`tkazish mo`ljallangan maydon nomi menyudan foydalanib kiritiladi va (Import) tugmasi bosiladi.

3.3. KITOBOXONNING AVTOMATLASHTIRILGAN ISH O`RNI (Kitobxonning shaxsiy elektron kabinet)

Foydalanuvchi elektron kutubxonada ro`yxatdan o`tgach “Kitobxon” maqomiga va elektron kutubxonaning fondidagi resurslardan foydalanish imkoniyatiga ega bo`ladi. Foydalanuvchi o`z elektron kabinetiga kirish uchun tizim kataloglashtiruvchisidan elektron pochta orqali olgan “Login” va “Parol”ni tegishli maydonlarga kiritadi (3.15-rasm).

Elektron kutubxona kitobxonining shaxsiy kabinetini quyida keltirilgan.



3.15-rasm

Kitobxon elektron kutubxona resurslarini qidirish bajarishi uchun “Qidirish” tugmasini bosadi. Natijada quyidagi shaklda qidirish imkoniyatini beruvchi interfeys ochiladi (3.16-rasm).

Ishchi sahifa: Dublin yadro Katolog: ИТА O'zbek

Kitobxon
Каримов У.Ф. Chiqish »

Menyu
"Kitobxon" ish joyi
• Shaxsiy kabinet
• Qidirish
• Kengaytirilgan qidirish

Muallif: [] Boshlanadi []
Sarlavha: [] Boshlanadi []
Kalitso'z: [] Boshlanadi []
Mantiqiy amallar []
RNTI: []
Nash etilgan yil: []
Natijalar soni: [10] []
Qidirish Tozalash

Copyright © 2007

3.16-rasm

Kitobxon "Muallif" maydoniga o`zi qidirayotgan hujjatning muallifini mazkur maydonga kiritadi va "Qidirish" tugmasini bosadi (3.17-rasm), natijada quyidagiga ega bo`lamiz (3.18-rasm).

Ishchi sahifa: Dublin yadro Katolog: ИТА O'zbek


Kitobxon
Каримов У.Ф. Chiqish »

Menyu
"Kitobxon" ish joyi
• Shaxsiy kabinet
• Qidirish
• Kengaytirilgan qidirish

Muallif: Каримов [] Boshlanadi []
Sarlavha: [] Boshlanadi []
Kalitso'z: [] Boshlanadi []
Mantiqiy amallar []
RNTI: []
Nash etilgan yil: []
Natijalar soni: [10] []
Qidirish Tozalash

Copyright © 2007

3.17-rasm



3.18-rasm

Topilgan elektron resurs annotatsiyasi bilan tanishish uchun interfeysning o`ng tomonidagi belgili tugmachani bosamiz va resursning annotatsiyasi bilan tanishish imkoniyatiga ega bo`lamiz. Resurs to`liq matnini ko`rish uchun belgili tugmachani bosamiz. Agarda resursni ko`rib chiqish uchun ruxsat berilgan bo`lsa tizim resurs to`liq matnini kitobxonga ko`rsatadi.


3.4. ADMINISTRATORNING AVTOMATLASHTIRILGAN ISH O`RNI

“Tizimni boshqarish/yuritish bilan shug`ullanuvchi xodimning (Administratorning) AIO`da yangi bazalar ochish, kerak bo`lmaganlarini o`chirish, tizimdan foydalanuvchi (administrator, kataloglashtiruvchi, kitobxon va boshqa) larga tegishli statuslar berish amallari bajariladi. Administratorning AIO`da bibliografik yozuv elementlarini EK bazasiga kiritish maydonlarini yaratishga mo`ljallangan maxsus “konstruktor” yaratilganki, uning yordamida har qanday MARC formatlar oilasiga kiruvchi ichki yoki kommunikativ format yaratish mumkin. Bu yerdagi universallik ma`lumotlarni bazalarga kiritish uchun ixtiyoriy ko`rinishdagi ishchi sahifalarni yaratish hamda bibliografik ma`lumotlarni eksport/import qilishga imkon beruvchi formatlarni yaratishga yo`l ochadi.

Tizimning interfeysi o`zbek va rus tillarida yaratilgan bo`lib uni boshqa tilga tarjima qilish unchalik murakkab ish emas. Maxsus ishlab chiqilgan jadvaldagagi so`zlar tegishli tilga tarjima qilingach tizim interfeysi kerakli tilda ishlay boshlaydi. O`zbekistondagi EK bazalarini shakllantirish bilan shug`ullanuvchi kataloglashtiruvchilarning malaka darajalarini nazarda tutib va ularga kataloglashtirish paytida yordam berish maqsadida har bir maydonga kiritiladigan

ma`lumot, uni kiritish tartibi va shakli to`g`risida maslahat berib boriladi. Bunday maslahatni olish uchun kataloglashtiruvchi tegishli maydonga sichqoncha bilan chertishi kifoya.

ARM Administratorining AIO`ni ishga tushirish uchun “Login” maydoniga “admin”, “Parol” maydoniga “11” qiymatlari beriladi (3.19-rasm). Bu qiymatlar o`rniga boshqalarini ishlatish ham ko`zda tutilgan.



3.19-rasm

“Kirish” tugmasini bosish orqali tizim Administratorining AIO`ga kiramiz (3.20-rasm).



3.20-rasm

Tizim Administratorining AIO`da bajariladigan asosiy vazifalar:

1. Ma`lumotlarni kiritish formasini (MARC formatlar oilasiga mansub) yaratish. Maxsus “konstruktor” yordamida.
2. Kiritish shaklini tanlash va o`rnatish.
3. Ma`lumotlar bazalarini yaratish va kerak bo`limganlarini o`chirish.
4. Ma`lumotlarni eksport/import operatsiyalarini bajarish.
5. Tizimdan foydalanuvchilar (administrator, kutubxonachi, kitobxon va boshqalar) uchun tegishli statuslar o`rnatish.

Avtomatlashtirilgan kutubxona-axborot tizimlarining (AKAT) bibliografik ma`lumotlar bazasi MARC formatlar asosida shakllantiriladi. Bugungi kunda respublikamizda va boshqa mamlakatlarda foydalanilayotgan AKATning bibliografik ma`lumotlar bazalari UNIMARC, RUSMARC, USMARC, MARC 21 yoki boshqa bir MARC oilasiga kiruvchi formatlar asosida shakllantirilmoqda. Ba`zi bir AKATlar o`z ichki formatiga ega bo`lib, ular bibliografik ma`lumotlarni eksport/import operatsiyalarini bajarishlari uchun UNIMARC, RUSMARC, USMARC, MARC 21 va boshqa formatlar bilan mos holda axborot almashtirish imkoniyatlari yaratilgan. KARMAT-EK tizimi o`z ichki formatini shakllantirishi uchun maxsus “Konstruktor”ga ega bo`lib, uning yordamida bibliografik ma`lumotlar bazasini xalqaro talablarga javob beradigan darajada shakllantirish va UNIMARC, RUSMARC, USMARC, MARC 21 yoki boshqa bir MARC oilasiga mansub formatlar bilan ishslash imkoniyatlari yaratilgan.

3.4.1. Tizimning ichki formatini yaratish

Tizimning ichki formati turli xossalarga ega bo`lgan maydonlar to`plamidan iborat bo`lib, maydonlar takrorlanuvchan maydonostilarga ega va qabul qiladigan qiymatiga ko`ra bir-biridan farqlanishi mumkin. Tizimning ichki formati maydon va maydon ostilardan iborat bo`lgani uchun yangi maydon yaratish ichki formatni tuzishda muhim ahamiyatga ega.

Yangi maydon kiritish uchun quyidagi maydonlarga tegishli qiymatlar beriladi (3.21.1-rasm).

Yangi maydon qo'shish	
Maydon	<input type="button"/> Marc 21 <input type="button"/> Unimarc
Tartib	<input type="text"/>
Nomi(uzb)	<input type="text"/>
Nomi(rus)	<input type="text"/>
Takrorlanish soni	<input type="text"/> 0
Maydon tipi	Satr
Kiritish majburiyimi	<input type="radio"/> Ha <input checked="" type="radio"/> Yo'q
Export/Import	<input checked="" type="radio"/> Ha <input type="radio"/> Yo'q
Yordamchi so'z(uz)	<input type="text"/>
Yordamchi so'z(ru)	<input type="text"/>
<input type="button"/> Qaytish <input type="button"/> Qo'shish <input type="button"/> Tozalash	

3.21.1-rasm

Maydon

Tartib

Nomi (o`zb)

Nomi (rus)

Maydonning takrorlanish soni

Maydon tipi

Kiritish majburiyimi

Maydon export\import qilinadimi

Yordamchi so`zlar

Tegishli qiymatlar maydonlarga kiritilgach “Qo’shish” tugmasi bosiladi va tizimning ichki formati uchun yangi maydon hosil qilinadi. Maydonlarga qiymatlar berishda ba`zi birlariga ma`lumot klaviatura orqali kiritilsa ba`zi birlariga ma`lumotlar maxsus menyudan foydalanib kiritiladi (3.21-rasm).

The screenshot shows a software window with a sidebar menu on the left. The sidebar menu includes 'Menyu' and 'Sozlash' sections with various options like 'Maydonlar', 'Kiritish shakllari', etc. The main panel contains several input fields: 'Tartib' (number 2), 'Nomi(uzb)' (name in Uzbek), 'Nomi(rus)' (name in Russian), 'Takrorlanish soni' (repetition number 0), 'Maydon tipi' (document type, currently set to 'Satr'), and 'Kiritish majburiyimi' (obligatory entry status). A dropdown menu under 'Maydon tipi' lists categories such as 'Satr', 'Satr Ma'lumotnoma', 'Ma'lumotnoma', 'Ierashik', 'Sana', 'Sonli', 'Matn', 'To'plam', 'Fayl hujjat', and 'Tiplanmegan'. Below these fields are two scrollable text areas for 'Yordamchi so'z(uz)' and 'Yordamchi so'z(ru)'. At the bottom are three buttons: 'Qaytish', 'Qo'shish' (highlighted in blue), and 'Tozalash'.

3.21-rasm

Barcha ma'lumotlar tegishli maydonlarga kiritilgach “Qo`shish” tugmasi bosiladi (3.22-rasm).

This screenshot shows the same software interface as 3.21-rasm, but the 'Qo'shish' button has been clicked, resulting in a filled-out form. The 'Maydon' field now contains '245'. The 'Tartib' field contains '29'. The 'Nomi(uzb)' field contains 'Сарлача' and the 'Nomi(rus)' field contains 'Заглавие'. The 'Takrorlanish soni' field contains '0'. The 'Maydon tipi' dropdown is still set to 'To'plam'. Under 'Kiritish majburiyimi', both 'Ha' and 'Yo'q' radio buttons are selected. The scrollable text areas for 'Yordamchi so'z(uz)' and 'Yordamchi so'z(ru)' are empty. The bottom buttons are 'Qaytish', 'Qo'shish' (disabled), and 'Tozalash'.

3.22-rasm

3.4.2. KARMAT-EK tizimida korporativ kataloglashtirish usulidan foydalanish

Korporativ axborot-resurs markazining avtomatlashtirilgan tizimi elektron katalogini shakllantirish asosan tayyor elektron bibliografik resurslardan foydalanib o`z ma`lumotlar bazasini shakllantirishga tayanadi. Shu sababli ham tizimda ma`lumotlar bazasini eksport/import qilish imkoniyati yaratilgan. Quyida bir ma`lumotlar bazasidan ikkinchi bir ma`lumotlar bazasiga bibliografik ma`lumotlarni ko`chirib o`tkazishni ko`rib chiqamiz. Kataloglashtiruvchining avtomatlashtirilgan ish o`rniga tegishli “Login” va “Parol” bilan kiramiz

Faraz qilamiz “ITA” ma`lumotlar bazasidan “Elektron kataloglashtirish korporativ tizimi” sarlavhasi bilan saqlanayotgan bibliografik yozuvlarni “Axborot resurs markazi” bazasiga ko`chirib o`tkazish talab qilinsin. Buning uchun tizim interfeysining yuqori qismidagi “Katalog” maydoniga menyudan foydalanib “ITA” bazasini o`rnatamiz (3.23-rasm)



3.23-rasm

Izlanayotgan “Elektron kataloglashtirish korporativ tizimi” so`zini “Sarlavha” maydoniga kiritamiz (3.23.1-rasm) va “Qidirish” tugmasini bosamiz. Natijada quyidagiga ega bo`lamiz (3.24-rasm).

Kataloglashtiruvchi

Katalogizator Chigish »

Menyu

Ma'lumotnomalar

Ma'lumotnomalar

Kataloglashtirish

Elektron katalog

Kitobxonlar

Qidirish

Kengaytirilgan qidirish

Ishchi sahifa: Dublin yadro Katolog: ИТА O'zbek

Ma'lumotlar bazasi(Kataloglar) bo'limi

Muallif: _____ Boshlanadi

Sarlavha: Электрон каталоглаштириш корпоратив Boshlanadi

Kalit so'z: _____ Boshlanadi

Qidirish Tozalash

Yangi adabiyot qo'shish

Kod	X	Nomi	Actions
<p>Анализ системы межгосударственных стандартов и нормативных документов по информационно-библиотечной деятельности, разработка рекомендаций по созданию и внедрению государственных стандартов [Якуний хисобот] : Text. / Узбекское агентство связи и информатизации, Алишер Навоий номидаги</p>			

3.23.1-rasm

Kataloglashtiruvchi

Katalogizator Chigish »

Menyu

Ma'lumotnomalar

Ma'lumotnomalar

Kataloglashtirish

Elektron katalog

Kitobxonlar

Qidirish

Kengaytirilgan qidirish

Ishchi sahifa: Dublin yadro Katolog: ИТА O'zbek

Ma'lumotlar bazasi(Kataloglar) bo'limi

Muallif: _____ Boshlanadi

Sarlavha: Электрон каталоглаштириш корпоратив Boshlanadi

Kalit so'z: _____ Boshlanadi


Qidirish Tozalash

Yangi adabiyot qo'shish

Kod	X	Nomi	Actions
<p>Электрон каталоглаштириш корпоратив тизими [Оралиқ хисобот] : Text. № Госрегистрации A-14-079 / Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий китубхонаси; импий раҳбар А. А. Умаров; иш икроғчиси И. З. Маминова [яна бoshq]. -2007. : 001</p>			
<p>РНТИ UDK</p>			


3.24-rasm

Topilgan natijalarning chap tomonidagi kichik kvadratchalarga sichqoncha bilan belgi qo'yamiz (3.25-rasm).



3.25-rasm

“Export” tugmasini bosamiz va quyidagi shaklga ega bo`lamiz (3.26-rasm). Bu yerdagи “Katalog” maydoniga menyudan (ma`lumotlar bazalari menyusidan) foydalanib “Axborot resurs markazi” so`zini o`rnatamiz (3.27-rasm).




3.26-rasm




3.27-rasm

“Import” tugmasini bosish orqali “ITA” bazasidagi “Elektron kataloglashtirish korporativ tizimi” sarlavhali bibliografik yozuv “Axborot resurs markazi” bazasiga ko`chib o`tadi (3.28.1-rasm). Buni tekshirib ko`rish uchun tizim interfeysining yuqori qatoridagi “Katalog” maydoniga ma`lumotlar bazasi menyusidan “Axborot resurs markazi”ni tanlash kerak. Natijada quyidagilarga ega bo`lamiz. Bu yerda “ITA” bazasidan bir necha bibliografik ma`lumotlarni “Axborot resurs markazi” bazasiga ko`chib o`tganligini ko`ramiz (3.28.2-rasm).



3.28.1-rasm



3.28.2-rasm

3.4.3. KARMAT-ITA tizimida yangi ma`lumotlar bazasi yaratish

KARMAT-M tizimida yangi baza ochish uchun “Administratorning AIO`dagi “Ma`lumotlar bazasi” tugmasi bosiladi (3.29-rasm). Paydo bo`ladigan interfeysning «Yangi katalog kiritish» yozuvining pastki qismidagi “Kalit so`z”, “Nomi” va “Tip” maydonlari to`ldiriladi va “Qo`sish” tugmasi bosiladi.




3.29-rasm

“Kalit so`z” maydoniga yangi ochilayotgan ma`lumotlar bazasining lotin alifbosidagi qisqa nomi kiritiladi. “Nomi” maydoniga yangi ochilayotgan ma`lumotlar bazasining to`liq nomi kiritiladi. *Eslatma: Yaratilayotgan*

ma`lumotlar bazalari kitobxonga “ochiq” yoki bu bazalar faqat “kutubxonachilarga ochiq” bo`lishi mumkin. “Tip” maydoniga menyudagi “Kitobxonga ochiq” yoki “Kitobxonga yopiq” rejimidan biri tanlanib kiritiladi.

Ma`lumotlar bazasining nomini o`zgartirish lozim bo`lganda tugmasi bosiladi va paydo bo`ladigan interfeysdagi tegishli maydonlarga tuzatish kiritamiz (3.30-rasm) va “Tahrirlash” tugmasini bosamiz. Natijada yangi nomdagagi ma`lumotlar bazasiga ega bo`lamiz.



3.30-rasm

Ma`lumotlar bazasini o`chirish kerak bo`lganda 57-rasmdagi tugmani bosamiz. Tizim ma`lumotlar bazasini o`chirilishini tasdiqlashni so`raydi, javob ijobjiy bo`lgan tegishli ma`lumotlar bazasi o`chiriladi. Ma`lumotlar bazasini o`chirishda juda ehtiyyot bo`lish lozim, zero o`chirilgan ma`lumotlar bazasini tiklash mumkin emas.

